

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
BOSHLANG'ICH TA'LIM ASOSLARI KAFEDRASI**

Murodova Mahliyo Hikmat qizining

**“O'QUVCHILARDA IQTISODIY MALAKALARNI
SHAKLLANTIRISHDA O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDAN
FOYDALANISH YO'LLARI” mavzusidagi**

5111700 - Boshlang'ich ta'lim va sport – tarbiyaviy ish ixtisosligi bakalvri
darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISH

*Ilmiy rahbar: Z.Umurov,
katta o'qituvchi*

*Rasmiy opponent: A.R.Hamroyev,
p.f.n., dots.*

Buxoro - 2018

REJA:

KIRISH:

- bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi;
- bitiruv malakaviy ishi mavzusining o`rganilganlik darajasi;
- tadqiqotning maqsadi;
- tadqiqot obyekti;
- tadqiqot predmeti;
- tadqiqot vazifalari;
- tadqiqot metodlari;
- tadqiqotning metodologik asoslari;
- bitiruv malakaviy ishi mavzusining ilmiy yangiligi;
- bitiruv malakaviy ishi mavzusining ilmiy –amaliy ahamiyati;
- bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.

I BOB. O`QUVCHILARDA IQTISODIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

I.1. O`quvchilarga iqtisodiy ta`lim-tarbiya berish sohasidagi tarixiy tajribalar

I.2. O`quvchilarda iqtisodiy malakalarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida

II BOB. UMUMIY O`RTA TA`LIM MAKTABLARI O`QUVCHILARIDA IQTISODIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHDA O`ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISHNING AMALIY ASOSLARI

II.1. O`quv fani - o`quvchilarga iqtisodiy bilimlarni beruvchi asosiy manba

II.2. Iqtisodiy ta`limda o`zbek xalq bayramlari

II.3. O`quvchilarda iqtisodiy malakalarni shakllantirishning shakl, metod va vositalari

XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

ILOVA

KIRISH

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Mustaqillik O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi uchun yangidan yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Suveren davlat sifatida jahon hamjamiyati mamlakatlari tomonidan tan olinganligi respublika uchun xalqaro maydonda o'z o'rnini yanada mustahkamlash mas'uliyatini yukladi. Xalqaro aloqalarni keng ko'lamda tashkil etishga erishish yo'lida amalga oshiriluvchi asosiy vazifalar jamiyatning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash, erkin iqtisodiyotni qaror toptirish, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish, chet el kapitallarini ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish, valyuta bozorini kengaytirish, shuningdek, xorijiy davlatlar bilan teng manfaatli shartnomalarni tuzishdan iboratdir. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishida malakali mutaxassislarni tayyorlash fuqarolarning iqtisodiy bilim va madaniyatini oshirish, ularda mulkka egalik tuyg'usi, moddiy va ma'naviy ashyolardan oqilona, maqsadga muvofiq foydalanish ko'nikmasi, shuningdek, turli yo'nalish va ko'lamda tadbirkorlik faoliyatini tashkil eta olish malakasini shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va jamiyatda bozor munosabatlarini qaror toptirish davlat siyosatining yetakchi yo'nalishlaridan biri ekanligiga e'tiborni qaratib, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida fuqarolarning iqtisodiy bilimlarga ega bo'lishlari muhimligini ta'kidlagan edi: «Eng muhimi hamma bozor munosabatlariga asoslangan rivojlangan jamiyatni qurish - bu uzoq murakkab jarayon ekanligini, uni doimiy ravishda chuqur idrok qilish va zarur hollarda tuzatishlar kiritishni talab qilishini anglamog'i kerak. Kishilarning tafakkurini, qotib qolgan tushunchalarni o'zgartirish ayniqsa muhimdir».

Fuqarolar, shu jumladan, o'quvchi – yoshlarda iqtisodiy tafakkur va madaniyatni shakllantirishning eng muhim kafolati – bu ularga chuqur iqtisodiy bilimlarni berish, ularni mumkin qadar ishlab chiqarish jarayonlarida bevosita ishtirok etishlarini ta'minlash, ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishning huquqiy va iqtisodiy asoslarini yaratish sanaladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish imkoniyatlariga ega. Mavjud imkoniyatlardan unumli va maqsadga muvofiq foydalangan holda o'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirish yo'lida amalga oshiriluvchi pedagogik jarayon mazmuni hamda texnologik tuzilmasini asoslash, «Iqtisodiy bilim asoslari» fani o'qituvchilarini ilg'or pedagogik texnologiyalar g'oyalarini ifoda etuvchi metodik manbalarga ega bo'lishlariga erishish bugungi kunda o'ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Iqtisodiy bilimlarga egalik o'quvchilar tomonidan iqtisodiy ishlab chiqarish jamiyat hayotining asosiy yo'nalishlaridan biri ekanligini chuqur anglanishiga imkon berish bilan birga ularda mavjud moddiy va ma'naviy ashyolar, tabiiy boyliklardan tejab–tergab foydalanish, ularni ko'paytirish to'g'risida g'amxo'rlik qilish, jamiyat iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish hamda oila xo'jaligini oqilona yuritish borasidagi dastlabki ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlariga imkon beradi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiyot kishilik munosabatlarining muhim va ajralmas qismi bo'lib, uni samarali tashkil etish tabiiy ehtiyojlar (eyish – ichish, kiyinish, yashash va hokazolar)ni qondirishga xizmat qilibgina qolmay, shaxsning ma'naviy jihatdan kamolotga erishishida ham alohida ahamiyatga ega. Shu bois ishlab chiqarishni to'g'ri tashkil etish, takomillashtirish, ilm-fan, texnika hamda texnologiya sohalarida qo'lga kiritilayotgan yutuqlardan foydalanish masalalariga jiddiy e'tibor qaratib kelinadi. Iqtisodiyot yetakchi yo'nalishlardan biri sifatida jamiyatning ijtimoiy va madaniy taraqqiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bois barcha davrlarda ham har qanday davlat siyosatining asosini tashkil etadi.

Zardushtiylik g'oyalariga ko'ra iqtisod tabiat va uning ne'matlariga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash hamda ko'paytirish to'g'risida qayg'urishdan iboratdir. Bu g'oyalar keyinchalik islom dinining muqaddds manbalari «Qur'oni Karim» hamda «Hadis»da ham yanada rivojlantiriladi va shaxs faoliyati iqtisodga ta'siri nuqtai nazardan aniq baholashga e'tibor qaratiladi. Ya'ni,

bu manbalarda mavjud moddiy va ma'naviy ashyolarni asrash, boyitish yo'lida amalga oshiriluvchi hatti-harakatlar savob, ularni isrof qilish, nobud etish gunoh deya baholangan. O'z asarlarini islomiy g'oyalar negizida yaratgan Sharq mutafakkirlari-Muhammad al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Alisher Navoiy, Abdurauf Fitrat hamda Abdulla Avloniylar shaxsning yaratuvchanlik faoliyati, dehqonchilik va hunarmandlik, oila xo'jaligini tashkil etish to'g'risidagi qarashlarni ilgari suradilar.

Ishlab chiqarishni tashkil etish, jamiyat iqtisodiyotini rivojlantirish, O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan iqtisodiy siyosat mohiyati, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish shartlari, tadbirkorlarning xuquqlari kabi masalalar iqtisodiy va pedagogik yo'nalishlarda amalga oshirilgan bir qator ilmiy tadqiqotning asosiy yo'nalishlari sanaladi. Chunonchi, G.Bach, A.V.Gluxov, E.D.Dolan, D.E.Lindsey, R.M.Kemrbell, Kan Kole, L.B.Stenli, Maykl Meskon, R.Samuelson, T.Xaylbroner, L.Tarou, M.To'xtayev, Sh.Ergashxo'jayeva, V.Erkayev, G.Karimova, A.O'lmasov, A.Qodirov, S.S.G'ulomovlarning ishlari ana shunday tadqiqotlar sirasiga kiradi.

Ta'lim muassalarida tashkil etiluvchi iqtisodiy ta'lim va tarbiya mohiyati borasida ma'lumotlar beruvchi manbalarni yaratish, yangi avlod darslarining metodik jihatdan yuqori saviyada bo'lishiga erishish, o'quv darsliklari va qo'llanmalarining mantiqiy va tarkibiy tuzilmasi jihatidan bugungi kun talablariga javob bera olishini ta'minlash masalasi M.Zamek, E.Sariqov, M.Mamatov, B.Haydarovlarning diqqatini o'ziga tortgan.

Ayrim tadqiqotlarda ilgari surilgan g'oyalarga ko'ra iqtisodiy ta'lim va tarbiyani samarali yo'lga qo'yishning muhim omillaridan biri o'qituvchilarning chuqur iqtisodiy bilim hamda pedagogik mahoratga ega bo'lishlari sanaladi. Shu bois ayrim tadqiqotlar, jumladan, R.V.Grivdenkoning ishida asosiy yo'nalish sifatida o'qituvchilarni ta'lim muassasalarida iqtisodiy ta'lim va tarbiyani tashkil etish jarayoniga tayyorlash, ularning metodik tajribalarini oshirish masalasi belgilangan.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida iqtisodiy bilimlarni shakllantirishda ta'lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish muhim ahamiyatga ega. V.P.Bespalko, M.Ochilov, N.Sayidahmedov, G.K.Selevko, V.A.Slastenin, S.Islamgulova, O'.Tolipov va M.Usmonboyevalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda pedagogik texnologiya nazariyasining mohiyati, tamoyillari, texnologik yondashuv asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon bosqichlari, o'qituvchi hamda o'quvchilarning bu jarayondagi o'rni va roli masalalari yoritiladi.

Garchi mustaqillik yillarida o'quv yurtlarida iqtisodiy bilim asoslarining mustaqil o'quv fani sifatida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan bo'lsa-da, o'quvchilar tomonidan iqtisodiy bilimlarni chuqur o'zlashtirilishiga erishish, ularda iqtisodiy faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirish yo'lida muayyan muammolar mavjud. Ularni ijobiy hal etish esa maxsus tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining maqsadi. O'quvchilarda iqtisodiy malakalarni shakllantirishda o'zbek xalq pedagogikasidan foydalanish yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti. O'quvchilarda iqtisodiy malakalarni shakllantirishda o'zbek xalq pedagogikasidan foydalanish jarayoni.

Tadqiqot predmeti. O'quvchilarda iqtisodiy malakalarni shakllantirishda o'zbek xalq pedagogikasidan foydalanishga yo'naltirilgan faoliyat mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqot vazifalari. Maqsadga erishish uchun bitiruv malakaviy ish oldida quyidagi vazifalar qo'yildi:

1. Mavzuga oid ilmiy - pedagogik, metodik adabiyotlar, muammoning amaliyotdagi holatini o'rganish asosida o'quvchilarga puxta iqtisodiy bilimlarni berishning dolzarb pedagogik muammo ekanligini asoslash.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarga puxta iqtisodiy bilimlarni berishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish.
3. O'quvchilarning iqtisodiy bilimlarga egalik darajasini aniqlovchi mezonlarni ishlab chiqish.

4 O'quvchilarga chuqur iqtisodiy bilimlarni berish, shuningdek, ularda iqtisodiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish texnologiyasini yaratish.

5. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga chuqur iqtisodiy bilimlarni berish hamda ularda iqtisodiy faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga oid ilmiy - metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, ularning samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot metodlari. Pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil, anketa, savol-javob, suhbat, kuzatish.

Tadqiqotning metodologik asoslari. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Pedagogika fani kontseptsiyasi», «Boshlang'ich ta'lim kontseptsiyasi», «Boshlang'ich ta'lim davlat ta'lim standarti», O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning asarlari va ma'ruzalarida bayon qilingan ta'limni isloh qilish, o'quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini o'stirishga oid yondashuvlar, qarashlar, ta'lim jarayonini takomillashtirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Xalq ta'limi vazirligining buyruqlari, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, psixologik manbalar, o'zbek xalqining tarixiy tajribalari.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining ilmiy yangiligi. O'quvchilarda iqtisodiy malakalarni shakllantirishda o'zbek xalq pedagogikasidan foydalanish yo'llari ishlab chiqildi; o'quvchilarda iqtisodiy malakalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodika ishlab chiqildi, eng maqbul shakl, metod va vositalar aniqlandi; umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida iqtisodiy malakalarni shakllantirishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining ilmiy –amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishda ilgari surilgan iqtisodiy ta'lim mazmuni, yo'nalishlari, shakl, metod va vositalari pedagogika va metodika fanlarini nazariy jihatdan boyitadi; o'quvchilarda iqtisodiy jarayonda faol ishtirok etish, mustaqil ravishda tadbirkorlik faoliyatini olib borish borasidagi dastlabki ko'nikmalarining shakllanishini

ta'minlaydi; iqtisodiy ta'lim-tarbiya mohiyatini yorituvchi adabiyotlarni yaratishda manba bo'lib xizmat qiladi; ishning amaliy g'oyalari «Iqtisodiy bilim asoslari» fanini samarali tashkil etishga metodik material sifatida yordam beradi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, besh fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB

O'QUVCHILARDA IQTISODIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

I.1. O'quvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish sohasidagi tarixiy tajribalar

Ma'lumki, o'zbek xalqi azal-azaldan tijorat bilan shug'ullanib kelgan, butun olamga o'zining donoligi, tadbirkorligi, mehnatsevarligi bilan nom chiqargan.

Ajdodlarimiz jamiyat hayotining asosini tashkil qilgan iqtisodiyot va tijoratga oid boy bilim, tajriba to'plashga erishganlar. Ko'plab ilmiy va badiiy manbalar, Sharq, shu jumladan o'zbek xalqining hayoti, turmush tarzi haqida ma'lumotlar beruvchi tarixiy, falsafiy adabiyotlar bunga misol bo'la oladi.

Halollik, poklik, haromdan hazar, birovning haqiga xiyonat qilmaslik-odamiylik, odoblilik gavhari bo'lib, odamni inson sifatida yuksak darajada e'zozlaydi, ulug'laydi. Shuning uchun ham Sharq xalqlari adabiyoti, falsafasi, tarixi va madaniyati, shuningdek Islom ta'limoti, ularning asosini tashkil etgan Qur'oni karim va Hadisi shariflarda har bir kishiga halol yo'l, peshona teri bilan mehnat qilib mol topish, pokiza hayot kechirishlik qayta-qayta uqtiriladi.

Avlod-ajdodlarimiz o'zlarining bir necha ming yillik hayot tajribalari va tarixiy kuzatishlaridan kelib chiqib, o'g'rilik, bosqinchilik, qalloblik, tovlamachilik, firibgarlik, ko'zbo'yamachilik, xiyonatkorlik, poraxo'rlik va boshqa nopok yo'llar bilan boylik orttirishni keskin qoralaganlar. Bolalarni tejamkorlik, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik, mehnatsevar, rostgo'y, insofli, sabr-qanoatli bo'lish ruhida tarbiyalaganlar.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» asarida buyuk ajdodlarimizning tarixiy-iqtisodiy ta'limotlarini tadqiq etish, ularni bugungi iqtisodiy islohotlarga xizmat qildirish, yosh avlodning iqtisodiy bilimdonligini allomalarimizning iqtisodga oid bilimlari bilan singdirish asosida tarbiyalash har qachongidan ham dolzarbroq bo'lib qolganligi haqida quyidagilarni ta'kidlab o'tgan: «Qadimda ajdodlarimiz komil

inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy tilda aytsak, sharqona axloq Kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida xaromdan hazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo'lishi kerak. Shunday odamgina lafzini saqlaydi, birovning haqiga xiyonat qilmaydi, sadoqatli bo'ladi. Vatani, xalqi uchun jonini fido etishga ham o'zini ayamaydi...»¹.

Ma'lumki, azaldan ota-onalar bolalarini xo'jalik ishlari bilan tanishtirib, ularda oilaning moddiy ahvoli haqida tasavvur hosil bo'lishga e'tibor berganlar. SHuningdek, o'zbek oilalarida bolalarga ro'zg'or buyumlarini ehtiyotlab, asrab-avaylash lozimligi uqtirib kelingan. Qadimda ota-bobolarimiz bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalab, bu tuyg'uni ular ongiga singdirib borganlar. Otalar o'g'illariga savdo-sotiq, uy-ro'zg'or ishlarini, onalar esa qizlariga uy tutish, oziq-ovqatni saqlash, tayyorlashni o'rgatganlar va bu odatlar qadimiy urf-odatlarimizdan hisoblanib kelgan.

Musulmonchilikda «halol» va «harom», «savob» va «gunoh» kabi tushunchalarni farqlash muhim ahamiyat kasb etgan. Ota-bobolarimiz musulmonchilik qoidalari deganda islom dinining asosi bo'lgan sha'riy hukmlarni tushunganlar. O'zbek oilalarida shariat qonun-qoidalariga amal qilish bolalar tarbiyasiga ijobiy ravishda ta'sir qilib kelgan. Qadriyatlarimizga ko'ra, nonni halollab egan, haromga yo'lamagan, birovning haqidan hazar qilgan, savdo paytida tarozidan ham, o'lchovdan ham urib qolmagan, buni hatto hayoliga ham keltirmagan diyonatli tijoratchilarni jamiki odamzod boshiga ko'targan.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish odamlarda iymon-e'tiqod, vijdon, halollik, birovning haqini eyishdan qo'rqish, xayr-ehson singari fazilatlar bo'lishini taqozo etadi. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov quyidagilarni ta'kidlagan: «Ma'naviyat tarbiyaning eng ta'sirchan quroli ekan, undan oqilona foydalanish, bolalarimizni vatanparvarlik, rostgo'ylik, haqsevarlikka o'rgatish kerak bo'ladi. Aslini olganda, axloq - ma'naviyatning

¹ Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3.-T.: O'zbekiston, 1996.-39 -b.

o`zagi. Inson axloqi shunchaki salom-alik, xushmuomaladangina iborat emas. Axloq - bu avvalo insof va adolat tuyg`usi, iymon, halollik degani»².

Bugungi kunda istiqlof sharofati tufayli yoshlarda milliy, ma`naviy qadriyatlar, qadimiy urf-odatlar, tilimiz, tariximiz, o`tmish me`rosimizga e`tiqodni tarbiyalash uchun eng qulay muhit, shart-sharoit yaratildi.

Donishmandlarning har bir so`zi, ta`sirchan, serma`no asarlari odamlarning qalbi va ongi, his-tuyg`ulariga ta`sir etib, hayotimizdagi kamchiliklar, nuqsonlarni bartaraf etish, rivojlanayotgan shaxs dunyoqarashi, uning ma`naviy, iqtisodiy hamda estetik bilimdonligini shakllantirishga ko`maklashadi.

O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov ilm-fanning barcha sohalarida buyuk ajdodlarimiz qoldirgan mo``tabar ma`naviy ne`matlar va ilmiy qadriyatlarni tadqiq qilib, o`zbek xalqining bugungi avlodiga etkazib berishga da`vat etib kelmoqda. Jumladan: «Mubolag`asiz aytish mumkinki, fanimiz, aql-zakovat salohiyatimizning noyob va go`zal binosiga bundan ko`p asrlar muqaddam poydevor solingan edi. Mamlakatimiz fani juda qadim zamondan yuksala boshlanganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini faxrlanib ayta olamiz. U asrlar davomida o`zbek millatiga, butun insoniyatga tabiat sirlarini o`rganishda, tibbiyot, falsafa, huquqshunoslik, ilohiyot, adabiyotshunoslik va tilshunoslikda ishonchli xizmat qilib kelmoqda.

Uzoq o`tmishdayoq o`zbek xalqining ilg`or mutafakkirlari olib borgan tadqiqotlar, ularning amalga oshirgan kashfiyotlari jahon umuminsoniyat fani va madaniyatining oltin xazinasini tashkil etadi. Bilimlar xazinasini ochgan buyuk ajdodlarimizning nomlari butun dunyoga mashhur»³.

O`zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin ta`lim-tarbiya sohasida milliy axloq-odobni qayta tiklash, urf-odatlar, turli-tuman an`analarni joy-joyiga qo`yish, qadriyatlarni yanada rivojlantirish borasida juda keskin va buyuk burilishlar bo`lgani barchaga ayondir. Shunga ko`ra, yosh avlodni milliy qadriyatlar, o`zlikni anglaydigan, buyuk tariximiz bilan haqli ravishda faxrlana oladigan ruhda

² Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3.-T.: O`zbekiston, 1996.-39 -b.

³ Karimov I.A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T.: O`zbekiston, 1997.-259 -b.

tarbiyalash, ajdodlarimiz merosi aks ettirilgan, mustaqillik ruhi singdirilgan darslik va qo'llanmalar yaratilmog'i zarur.

A.Abdullayev, A.Islomov, E.Egamovlar, Q.Yo'ldoshev va Q.Muftaydinovlar iqtisodiy ta'limotlar tarixini o'rganuvchi talabalarga mo'ljallangan qo'llanmalarida payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning Hadisi shariflari, bobokolonlarimizning iqtisodiyot bilan bog'liq qarashlarini iqtisod nazariyasi fani va davlatimizning iqtisodiy siyosatiga bog'lab sharhlashga uringanlar.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilim va tushunchalarini boyitishga yo'naltirilgan o'quv materiallari tizimini vujudga keltirishda o'zbek xalqining tarixiy tajribasidan samarali foydalanish katta ahamiyatga egadir. Chunki, ezgulik, saxovat, ulug'vorlik, halollik, poklik singari ijobiy fazilatlar ta'lim-tarbiyada, jamiyat a'zolari o'rtasida ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy munosabatlarni shakllantirish va mustahkamlashda katta o'rin tutadi. SHuning uchun ham odob-axloq haqidagi pandu nasihatlar, o'git, maqol va matallarda o'zbekona ma'naviyat, qadriyatlarga qadim zamonlardan boshlab alohida e'tibor qaratilgan. Chunonchi, Imom Ismoil al Buxoriy, Rizouddin ibn Faxriddin, Kaykovus, Mahmud Qoshg'ariy, Ali ibn Abu Bakr Marg'iloniy, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobiy, Abdulla Avloniy va boshqa mutafakkirlar, mashhur shoir va olimlarning asarlarida bayon qilingan iqtisodga oid qarashlar bunga misol bo'la oladi.

Chunonchi, Imom Ismoil al Buxoriyning «Al-jomi' as-sahih» (Ishonarli to'plam) asari o'quvchilarda bozor iqtisodiyotiga o'tishning ma'naviy-axloqiy asoslarini tarkib toptirish va rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega⁴. Chunki hadislarda ilgari surilgan fikrlar hozirgi iqtisodiy munosabatlarda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Hadislarda insoniy xislatlardan ezgulik, sabr-qanoat, shukronalik kabilar ulug'lansa, isrofgarchilik, ta'magirlik, ochko'zlik, baxillik, johillik kabi illatlar qoralanadi.

⁴ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis-2. Al-jomi' as-sahih (Ishonarli to'plam).-T.: Qobuslar bosh tahririyati, 1996.-9 - b.

Hadislarda xalq tajribasida sinalgan ezgu g'oyalar kuchaytiriladi, ular nasihat va talab shaklida xalqqa etkaziladi, xalq g'oyalariga zid odatlar esa majoziy jihatdan bo'rttiriladi, yomon oqibatlardan ogoh etiladi. Bunday hollarda mubolag'ali usul orqali hadislarning tarbiyaviy ta'siri kuchaytiriladi.

Asardan keltirilgan quyidagi parchalar fikrimizning dalilidir:

Miqdor raziyalloxu anhu rivoyat qiladilar: «Rasululloh sallolloyu alayhi vasallom: «Hech kim o'z qo'li bilan topgan rizqdan ko'ra lazzatliroq taom emagan. Ollohning payg'ambari Dovud alayhissalom ham o'z qo'llarining mehnati bilan tirikchilik qilganlar». Bu erda mehnatsevarlik, halollik ulug'lanib, insonning o'z mehnati evaziga topilgan rizqining naqadar lazzatli ekanligi ta'kidlanadi.

Umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilgan saxiylik, oliyjanoblik, ezgulik xolis niyatda amalga oshirilmog'i zarur ekanligi quyidagi hadisda ta'kidlanadi:

Jobir ibn Abdulloh raziyalloxu anhu rivoyat qiladilar: «Biror narsa sotishda yoki xarid qilishda yohud biror hukm chiqarishda oliyjanoblik ko'rsatgan odamni Olloh taolo o'z rahmatiga olur».

Navbatdagi nasihatda ta'magirlik, ochko'zlik bilan mol-dunyo to'plash saxiylikka zid bo'lib, u minnat evaziga, g'arazli maqsadda qilinishi, Olloh taolo nochorlarning qarzidan kechgan saxiy, fe'li keng odamlarning gunohidan o'tishi haqida quyidagilar ta'kidlanadi:

Xufayza raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Janob Rasulloh sallolloyu alayhi vasallam bunday deydilar: «Bir odam vaqti-soati etib dunyodan o'tdi. Shunda unga: «Hayotlik vaqtingda qanday xayrli ish qilgansan?»-deyildi. U: «Odamlar bilan savdo-sotiq qilar edim. Shunda qarzini uzishga qurbi etadigan, (ammo vaqtincha uzolmay turgan) kishiga muxlat berar, nochorlarning qarzini kechib yuborar edim», -deydi. Shul bois, Olloh taolo uning gunohlaridan o'tdi».

«Abu Xurayra raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Nabiy sallallohu alayhi vasallam bunday deydilar: «Bir tojir (savdogar) odamlarga qarz berardi. Agar nochor odamlarga qarz bersa, qo'l ostidagilarga: «Uning qarzidan o'tib qo'ya qolinglar, shoyad Olloh taolo ham bizning gunohlarimizdan o'tsa!», -derdi. Shunga

binoan uning xizmatchilari nochorlarning qarzini kechib yuborardilar. Shuning uchun Alloh taolo u dunyoda o'sha savdogarning gunohidan o'tdi».

Agar inson o'zini yolg'on gapirish, ikki yuzlamachilik, ochko'zlikdan saqlasa, shaxs va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy takomillashuviga ijobiy ta'sir etadi. Hadislarda birovning haqiga xiyonat qilmaslik, halollik, to'g'riso'zlik savdoda baraka keltirishi, ochko'zlik, bir-biriga g'irromlik qilish uning barakasini uchirishi haqida quyidagi fikrlar berilgan:

«Al-Ado ibn Xolid raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Nabiiy sallollohu alayhi vasallam: Agar sotuvchi o'z molining aybini yashirmasa hamda oluvchi ham pul berishda g'irromlik qilmasa, (bunday) savdoda baraka bo'lur. Agar har ikkala tomon ham bir-biriga g'irromlik qilsa, bunday savdoda baraka bo'lmas!».

Demak, shunday xulosa qilish mumkinki, har ikkala tomon bir-birini aldasa, g'irromlik qilsa, bu savdo halol savdo hisoblanmaydi. Savdo-sotiq ishi halollikni yoqtiradi, shuning uchun sotuvchi ham, xaridor ham rost gapirishi shart.

Uqba ibn Omir raziyallohu anhu: «Kishi o'z molining aybini yashirgan holda savdo qilishi halol ermas», -deydilar.

Shuningdek, savdoda poklik, insof, diyonat, to'g'rilik tuyg'ulariga rioya qilish haqidagi so'zlar yuqoridagi fikrlarni to'ldiradi. Ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Bir odam janob Rasululloh sallollohu alayhi vasallamga (har safar) savdoda aldanib qolishidan shikoyat qildi. Shunda janob Rasullulloh: Har safar savdo qilayotganingda: «Savdoda aldov yo'q» deb qo'y!».

Savdo-sotiq ishlarida amal qilinadigan shartlardan yana biri savdogarlar o'zaro bir-birlarining savdolarini buzmasliklari lozimligidir. Keyingi nasihatda birodariga xiyonat qilish, nopok narsalarga vaqti va pulini sarf etish gumroh odamlarga xos qusurlar ekanligi, ularning topgani esa halol bo'lmasligi ta'kidlanadi. Ibn Umar raziyallohu anhu rivoyat qiladilar: «Rasululloh alayxi vasallam: «Birortangiz birodaringiz savdosi ustiga savdo qilmangiz!».

Hadislarda savdo-sotiq ishida sudxo'rlik bilan shug'ullanish qoralanadi. Sudxo'rlikdan olingan foyda halol foyda emas va shuning uchun uning barakasi ham bo'lmaydi. G'irromlik qilish ham sudxo'rlikning bir ko'rinishi sifatida

qoralanadi. Ibn Abu Avfo: «Molning bahosini sun'iy oshiruvchi odam sudxo'r, xoin va aldamchi bo'lib, topgani halol ermas», -deydilar.

Yangi jamiyat kishisini tarbiyalashda yuqorida keltirilgan bunday fikrlar juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ushbu fikrlar yosh avlodni insoniy fazilatlar bilan qurollantirishdan tashqari ular tafakkurini iqtisodiy bilimlar bilan ham boyitib boradi. Shuning uchun bu fikrlardan odobnoma, o'qish, ona tili, mehnat, matematika darslarida samarali foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Imom Ismoil al Buxoriyning «Al-adab al mufrad» (Adab durdonalari) asarida ham o'quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini oshirishga xizmat qiladigan qimmatli fikrlar berilgan⁵. Asarda xaridorni aldamaslik, qimmatfurush bo'lmaslikka intilish, xaridorga qattiq gapirmaslik - bular savdogarchilik odob-axloqi va madaniyatining muhim talablaridan bo'lib hisoblanishi ta'kidlanadi. Tejamkorlik, poklik, to'g'rilik, iymon-e'tiqodlilik ulug'lanadi. Asardan keltirilgan quyidagi parchalar fikrimiz dalilidir.

Abdulloh ibn Umardan rivoyat qilinadi: «Ahloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik -mana shu to'rt xislatni Alloh taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir».

Abu al Abid ibn Mu'oviya ibn Sibra (roziyollohu anhu) aytdilar: Men Abdulloh ibn Mas'uddan isrofkunandalar degan so'zning ma'nosini so'raganimda, Abdulloh: «U molni nohaq erlarga sarflaydigan kishilardir», -dedilar.

Isrof so'zining lug'aviy ma'nosi-molni gunoh ishlarga sarflash yoki o'zi va bola-chaqasi uchun ham narsa qoldirmay, bor-yo'g'ini mayda-chuyda, iker-chikirlarga sarflab yuborish ma'nosini anglatadi. Isrof, u qaysi ko'rinishda bo'lmasin, kishining bor-yo'g'ini sovuradi, yakson qiladi, -degan fikr ilgari suriladi.

Keyingi hadisda quyidagilar ta'kidlanadi. Abdulloh ibn Abbosdan rivoyat qilindi: Rasululloh: «Yaxshi siyrat, chiroyli hay'at va har bir ishda iqtisodchilik

⁵ Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Adab durdonalari). -T.: «O'zbekiston», 1990.-197 b.

etmish xislatdan bir bo'lagidir», - deyдилar. Bu o'rinda yaxshi siyrat deganda yaxshi muomala, chiroyli hay'at tashqi ko'rinishni yaxshilab yurish, iqtisod, har bir xatti-harakatda me'yorni ko'zlash nazarda tutiladi.

Molni tejash va ko'paytirish, savob haqida quyidagi hadisda shunday rivoyat qilinadi.

Anas ibn Molikdan rivoyat qilindi: Rasululloh: «Birortangiz ekish uchun qo'lingizda bir ko'chatni ushlab turgan vaqtingizda qiyomat qoyim bo'lib qolsayu, qoim bo'lishdan ilgariroq uni ekib olishga ko'zingiz etsa, albatta ekib qo'ying», - deyдилar.

Keyingi hadisda hayot kechirishda tartibli bo'lish haqida quyidagilar bayon etiladi.

Kusayyir ibn Ubayd (roziyollohu anhu) aytdilar: Men hazrati Oysha huzurlariga kirdim. Shunda u zot menga: ozgina sabr et, men lungimni tikib olay, dedilar. Men u zotga agar bu voqeani chiqib odamlarga gapirsam, ular sizni albatta baxil deb hisoblashadi, dedim. Oysha «Mayli, o'zing bilasan. Eski kiyim kiymaydigan kishida yangi kiyim bo'lmaydi», - dedilar.

Abu Hurayradan rivoyat qilindi, u kishi aytdilar: Rasululloh: «Sizlarning uchta ishingiz uchun Alloh taolo rozi va uchta ishingiz uchun g'azablik bo'ladi: ... molni noo'rin erlarga sarf qilib zoe qilmog'ingizga g'azablanadi», - dedilar.

Shunday qilib, hadislar Sharq madaniyatining buyuk obidasi sifatida uzoq tarixga ega bo'lib, ular o'zining chuqur falsafiy mazmuni, kishilarning ma'naviy, iqtisodiy madaniyatini shakllantirishdagi boy tarbiyaviy imkoniyatlari hamda SHarq xalqlarining qimmatli merosi sifatida o'quvchi-yoshlarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda ushbu hadislardan o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berish jarayonida samarali foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

O'zbek xalqining ma'naviy merosida, uning madaniyati xalqaro miqyos kasb etishida ulug' shoirimiz va mutafakkir Alisher Navoiyning o'rni, uning xizmatlari beqiyosdir. Alisher Navoiyning ilmiy me'rosi shu qadar boy va keng qirraliki, unda iqtisodiyot masalalariga doir ko'pgina qimmatli g'oyalar ham o'z

ifodasini topgan. Mutaakkirning iqtisodga oid qarashlari uning «Mahbub ul-qulub» (Qalblar sevgilisi) asarida bayon qilingan⁶. Bu asarda Navoiy xiyonatchi, o'z foydasini ko'zlaydigan, elga qahatchilik tilaydigan, arzon olib, qimmatga sotib, ziyon etkazadigan olibsotarlarni la'natlaydi. U asarda odamlarni odob-axloqli, kamtar, kamsuqum, sharm-hayoli, insof-tofiqli, halol, pok, nafsini tiya oladigan bo'lishga da'vat etadi, odamiylikni yuksak darajada ulug'laydi.

Asarda savdo ahli nihoyatda insofli, diyonatli, halol, pokiza, to'g'ri, rostgo'y bo'lmog'i, o'zining foydasi uchun o'zgalarga ziyon etkazmasligi, omonatga xiyonat qilmasligi, ko'nglida birni yuz qilaman, bo'zni shoyiga aylantiraman degan istak bo'lmasligi, aybli va nuqsonli narsalarni sotmasligi, sotganda ham oluvchiga nuqsonini aytib qo'yishi, kasod mollarni pullamasligi lozimligi haqida quyidagi fikrlar bildirilgan:

«Savdogar yolg'iz foydani niyat qilmasligi; foyda qilaman deb, o'zini qattiq mashaqqatga qo'ymasligi, savdo qilib foyda topaman, deb dengizga kema surmasligi; dur olaman, deb nahang og'ziga qo'l solmasligi; mol va pul ko'paytiraman, deb jonsarak bo'lmasligi kerak. U xizmatkor va savdodagi go'mashtalarini o'z hashamati va obro'sining sababchisi deb bilmasligi; nafis matolarni ayab, eski chopon kiymasligi; lazzatli taomlarni ko'zi qiymay, qattiq non emasligi lozim. Uning tortgan qiyinchiliklari tirikchiligining yaxshi o'tishi uchun xizmat qilsa va topgan foydasi ko'ngil farog'ati uchun sarflansa yaxshi bo'ladi...».

Navoiy ta'magirlik va nokastlikni qoralab quyidagi satrlarni yozadi: «... Ta'magirning biror nima olishga o'chligi, xuddi eb to'ymasning ochko'zligiga o'xshaydi...».

Ta'magirlik va nokastlik shunday yomon fe'lki, bular go'yo ikki yoqimsiz egizakdir. Unisi bundan yomon-bunisi undan yomon; ikkalasi hamma yomondan yomon. Bularning biri nokas va birining iqboli past; ikkalasining mohiyati birdir».

Keyingi pand nasihatlarda A.Navoiy nafsni tiyish, takabburlik va manmanlik nodon odamlarga xosligi, o'rinsiz isrof qilish bu saxiylik emasligi haqida so'z

⁶ Navoiy Alisher. Mahbub ul-qulub: (Qalblar sevgilisi)-T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.-112 b.

yuritadi. «Nafs ketiga tushgan-nafsoniyat manzilidagina to'xtaydi. Hech kim o'z ko'ngliga g'am tilamaydi va o'z nafsini qiynashni xohlamaydi».

Asarda xasislikni insondagi eng yaramas sifat deb ko'rsatilgan va undan jirkanilgan. «Baxil odam molini asrash uchun qattiq azob chekadi. Hasadchi esa o'z yaramas fe'li tufayli tinch yashay olmaydi. Unisi o'ziga o'zi bergan azobdan qiynaladi, bunisi esa o'z qilig'idan dard chekadi».

Asarda A.Navoiy taqsimot munosabatlari, ularning adolatli tashkil etilishiga e'tiborni qaratadi, xususan xizmatga yarasha haq to'lash masalasi diqqat markazda turadi. U yasovul misolida shunday deydi: «Yasovul shunday odamki, u mazlum, ezilgan kishini zolimning zulmidan qutqargay. Lekin yasovul bu xizmati uchun haligi mazlumdan ortiqcha haq olguday bo'lsa, u ham zulmkorning zulmiga kattakon sherikdir. Agar xizmatiga yarasha haq olish xayolida bo'lsa, u ota merosi va ona suti kabi haloldir...».

Alloma savdogarlarni insofga, diyonatga chaqiradi, ulardan faqat o'z foydasini ko'zlab ish tutmaslikni talab qiladi. A.Navoiy odamlarni hunarli bo'lish, doimo harakat bilan yashash, tadbirkorlik, tejamkorlik xislatlarini egallashga undaydi. U bu haqda shunday deydi: «Har bir ishdan foyda kutganingda, uni bajarishda qiyinchiliklar va ikkilanishlar paydo bo'lsa, mashaqqati ozroq tomonga kuch ber, qiyinchiligidan ezilmaslik chorasini ko'r... Nodon o'gitida xato bo'lishi muqarrardir; dushman nasihatida aldov bo'lishi shubhasizdir. Unisidan aldanma va bunisiga o'zingni aldatma».

Ko'rinib turibdiki, bu g'oyalarda tadbirkorlikning mazmuni, xosiyati chuqur mantiqiylik bilan bayon qilingan, ularda insonni aql-zakovat bilan ish yuritishga da'vat etilgan.

Alisher Navoiy iqtisodiyotning muhim jihati bo'lgan mulk masalasiga e'tiborni qaratdi. U mulkni to'g'ri ishlatish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik kerak deydi. Ana shunday odamlar to'q va farovon yashashlari mumkinligi haqida shunday deydi: «Isrof qilish-saxiylik emas, o'rinsiz sovurishni aqlli odamlar saxiylik demas. Halol molni kuydirganni-devona deydilar; yorug' joyda sham' yoqqanni aqlan begona deydilar...».

«Kishi o`z molidan qancha foydalansa o`ziniki; qancha asrasa-o`zganikidir. Zahmat bilan topganingni o`zingdan ayama; do`stlar bilan mehnat qilib topganingni dushmanlar uchun asrama».

Alloma o`z davrida dehqonlarning moddiy ne`matlar yaratuvchi asosiy kuchligi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taqdiri ularga bog`liq ekanligini ko`ra bilgan va shunday yozgan: «Olamning obodligi dehqonlardan; mehnat ahli shodonligi ulardan. Dehqon har qanday ekin ekishga qilsa harakat - elga ham oziq-ovqat etkazur, ham barakat. Dehqonki, halol bilan don sochadi, haq bir donini etti yuzga etkazadi...».

A.Navoiy bola tarbiyasi va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat beradi. U bolaga kichik yoshdanoq bilim, ma`lumot va tarbiya berishlikni ko`rsatib, o`g`il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyalash, muallimga berish lozimligini aytadi. Farzandlar ilk yoshidayoq fan va hunarlarni egallab olmoqligi lozimligini ta`kidlaydi.

Kichik maktab yoshdagi o`quvchilarga iqtisodiy ta`lim berish masalasi dolzarb bo`lib qolayotgan hozirgi kunlarda buyuk shoirning yuqoridagi g`oyalari naqadar ahamiyatli ekanligini yaqqol ko`rish mumkin. Bu g`oyalardan boshlang`ich sinflarning ona tili va o`qish darslarida foydalanish katta ahamiyatga ega.

Dunyodagi ko`pchilik xalqlar, millatlar, kattayu kichik odamlar uchun hayot darsligi, odob-axloq, pandu nasihat yo`riqnomasi bo`lib kelayotgan kitoblardan biri IX asrning noyob tarixiy asari sanalmish Kaykovusning «Qobusnoma» asaridir<sup>7</sup>. Unda ota-onani hurmatlash, bilimni oshirish, nafsni tiyish, omonatni saqlash, tejamkorlik va shunga o`xshash kishilarning iqtisodiy bilimdonligi, ma`naviyati, madaniyatiga taalluqli masalalar bo`yicha qimmatli fikrlar bayon etilganki, ular hozirgi davr uchun ham katta ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Quyidagi nasihatlar fikrimiz dalilidir:

«Ey farzand, o`zingni mol jam qilishda g`ofil tutmagil, ammo halollik bilan mol to`plashga harakat qil. Mol uchun o`zingni xavf-xatarga qo`yma. Molni jam

⁷ Kaykovus. Qobusnoma.-T.: O`qituvchi nashriyoti, 1973.-128 b.

etganingdan keyin yaxshi saqlagil va har bir yaramas ish uchun sarf qilaverma, chunki molni saqlash yig'ishdan qiyindir ...». Mufakkir bu nasihatida pul va mol-dunyoni halollik va poklik bilan to'plash, uni yomon ishlar uchun sarf qilmaslik kerakligini bayon qiladi. Mol-dunyo bebaho narsa, bugun bor, ertaga bo'lmasligi mumkin. U qanchalik shirin bo'lib ko'rinmasin, baribir abadiy emas. Mol-dunyoni yiqqandan keyin uni saqlash, kerakli joyda ishlatish, ko'paytirishni ham bilish lozimdir.

Quyidagi nasihatda esa mol yig'ishda sustkashlik qilmaslik, balki mehnat va barcha mahoratni ishga solish zarurligi, kamtar, sabr-qanoatli, mehnatsevar insonlar hech qachon xor bo'lmasligi haqida takidlanadi. «Mol yig'ishda sustkashlik qilmagil, chunki sustkashlik baxtsizlikning shogirdidir. O'zing mehnat qil, chunki mol mehnat bilan yig'iladi, sustkashlik bilan parokanda bo'ladi. Donishmandlar deganlarki, harakat qiling, obod bo'lasizlar va ozga qanoat qiling, badavlat bo'lasiz; kamtar bo'ling, do'stingiz ko'p bo'ladi... Bor molingga qanoat qil, qanoat bitmas-tuganmas davlatdir va sen qanday ahvolda bo'lsang ham, rizq-ro'zingga etishasan. Shirin so'z yoki xalqning shifoati bilan yaxshi bir ish sening qo'lingga kirsam, uni tezda yo'qotib yubormagil, chunki molsiz odamning qadri bo'lmaydi...».

Quyidagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, mehnat evaziga orttirilgan barcha narsalarga tejamlilik va jonkuyarlik bilan munosabatda bo'lish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik natijasida farovonlikka erishilar ekan. «Har ishning bir sababi bordir. Ammo qashshoqlikning sababi isrofdir. Isrof faqat molni sarf qilishgina emas, ovqat, kishining qiliqlari, nutqida ham isrof bo'ladi, isrof tanni aldaydi, nafasini ranjitadi, aqlni qochiradi va tirikni o'ldiradi, ko'rmaysanmiki, chiroqning tirikligi yog' bilandir. Agar yog'ni haddan tashqari ko'p solsang, yog' pilikning boshiga chiqib, chiroqni o'chiradi, yog' esa chiroqning yonishiga sababchi edi, isrof jihatdan o'limiga sabab bo'ldi...».

Savdodagi to'g'rilik va savdogarlik haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: «Savdo ikki xildir, ikkovi ham xatarlidir: biri muomala, ikkinchisi musofirlikdir. Muomala o'rtoqlar (muqimlar)ga xosdirkim, kasod mollarni foyda ta'ma bilan

sotib oladilar. Bu ishda mol xatarlidirkim, jasoratli va oldindan ko'ruvchi kishi kasod molni foyda umidi bilan olishi kerak.

Demak, har yo'l bilan savdogar o'zining moli va taniga ehtiyot bo'lishi, beparvo bo'lmasligi kerak. Shu bilan birga, (savdogar) omonat va to'g'rilikni o'ziga odat qilishi zarur, o'zining foydasi uchun o'zgalarga ziyon etkazmasligi kerak va o'ziga tobe bo'lgan kishi bilan muomala qilgay. U shunday ulug' odam bilan muomala qilishi mumkinki, u odam diyonatli va muruvvatli bo'lgay, firibgar kishidan qochgay. Molning yaxshi va yomonini bilmagan va moli oz odam bilan muomala qilmagay. (Agar shunday odam bilan muomala) qilsa, foydadan ta'ma qilmagay, toki ikkovining orasidagi do'stlik vayron bo'lmagay».

Keyingi nasihat esa savdo-sotiq ishida kishilarni birovning haqiga xiyonat qilmaslikka, rostgo'y hamda muruvvatli bo'lishga undaydi. «Savdoda yolg'on so'z aytmagil, kofir va musulmon orasida savdo vaqtida yolg'on so'z aytish ko'p yomon feldir. Sotmaguncha hech molni qo'ldan bermagil va muomalada sharm qilmagilkim, donishmandlar aytibdilarki, sharmdan ko'p umid va orzular hosil bo'lmog'usidir. Lekin ko'p bemuruvvat va behayo bo'lma, (bu) foyda bermaydi. Debдилarki, savdogarchilikning asli tasarruf va muruvvatdir. Chunki bular molni omon saqlashga sabab bo'lur».

Oldi-sotdida muloyim bo'lish, berilgan vadaga vafo qilish, xiyonat qilmaslik, bir marta xiyonat qilgan kishi el nazaridan qolishi haqida quyidagi nasihatda shunday maslahat beriladi:

«Ey farzand, xiyonatdan qochgilki, kimki bir marta xiyonat qilsa, unga hech kimning etimodi qolmaydi. To'g'rilikni o'zingga kasb qilib olgilki, to'g'rilik eng yaxshi ishdir. Oldi-sotdida muloyim bo'l va kishiga vada qilmagil, vada qilsang, unga xilof etmagil. Xaridorga yolg'on so'z demagil, rostini aytgil. Muomalada, birovga hujjat berganingda yoki hujjat olganingda ehtiyot bo'l, hujjat berishni istasang, to haqingni qo'lga olmaguningcha hujjatni qo'lingdan bermagil».

Birovning haqiga xiyonat qilgan odam oxir oqibat o'zi zarar ko'rishi haqida quyidagi hikoyatda bayon etiladi. «Shunday eshitdimki, bir kishining qo'yi haddan tashqari ko'p edi. Uning nomusli va xiyonat qilmaydigan bir cho'poni bor edi. U

har kuni qo'ylarni sog'ib, sutni qo'y egasining oldiga keltirardi. Qo'y egasi sutga yarim hissa suv qo'shib, cho'ponga sotib kelishni topshirardi. Cho'pon unga shunday nasihat qildi: «Ey xo'ja, musulmonlarga xiyonat qilmagilki, o'zingga zarar etkazasan». U kishi cho'ponning nasihatini eshitmadi va xiyonat qilaverdi. Bir kecha bahor vaqtida qo'ylarni sel oqadigan joyga qo'ydi va o'zi bir balandlikka chiqib uxlab qoldi. Ittifoqo, ko'p yomg'ir yog'di va sel oqib kelib qo'ylarni oqizib ketdi va barcha qo'ylar halok bo'ldilar. Ikkinchi kun cho'pon shaharga keldi. Qo'y egasi unga dedi: «Bugun nima uchun sut keltirmading?» Cho'pon: «Ey xo'ja, men senga sutga suv qo'shmagil degan edim, mening so'zimni aslo eshitmading. O'tgan kechasi sutga qo'shgan suvlaringning hammasi yig'ilib, sel bo'lib oqdi va qo'ylarni oqizib ketdi», -deb javob berdi».

Yana bir hikoyatda omonatga xiyonat qilmaslik haqida shunday nasihat beriladi: «Men shunday eshitganmanki, bir kishi kechasi sahar vaqtida qorong'ida uyidan chiqib ketdi va hammomga bormoqchi bo'ldi. O'z do'stlaridan biriga: «Men bilan hamroh bo'lib hammomga borgil!»-dedi. U dedi: «Sen bilan birga boraman-u, ammo hammomga tushmayman, chunki mening bir zarur ishim bor». U kishi hamrohi bilan hammom tomonga qarab ketdi. Ikki ul ketgan joyga borib, hammomga boruvchi do'stiga bildirmasdan boshqa yo'lga kirdi. Hamrohi yolg'iz o'zi hammomga ketaverdi va do'stim bilan kelayotirman deb o'ylab boraverdi. Ittifoqo, bir o'g'ri u kishining izidan ketaverdi, u kishi buni do'stim deb fahmladi va uning qo'ynida yuz tillasi bor edi. Hammomning eshigida tillani qo'ynidan chiqarib kecha qorong'isida tanimay haligi o'g'riga berdi va dedi: «Ey birodor, men hammomga kirib chiqquncha bu tilla senda tursin, hammomdan chiqqanimdan keyin menga topshirasan». O'g'ri tillani olib, o'sha joyda o'tirdi. U kishi hammomdan chiqib, kiyimlarini kiyib ketaverdi. O'g'ri uning orqasidan chaqirib dedi: «Ey juvonmard, kel mendan oltinlaringni ol. Bugun men sening omonatingni saqlab o'z ishimdan qoldim». U kishi dedi: «Sen kimsan, bu oltin qanday oltin?» O'g'ri dedi: «Men bir o'g'riman, bu oltin sening menga topshirgan oltiningdir». U kishi dedi: «Agar sen o'g'ri bo'lsang, nima uchun bu oltinlarni olib ketmading?» O'g'ri dedi: «Agar ming tilla bo'lsa ham, sendan andisha qilmay olib

ketardim, lekin sen bu oltinni menga omonat topshirding. Omonatga xiyonat qilmoq juvonmardlikdan emas»»».

«Omonatga xiyonat qilmagilki, omonatni kimyoyi zar deganlar. Agar rostgo'y bo'lsang, hamma vaqt badavlat yashaysan, yani dunyodagi hamma boylik rostgo'y odamga tegishlidir. Birovdan aldanmaslikka harakat qil va birovni aldashdan hazar qil», -degan nasihatlar berilgan kitobda.

Halol odam qalloblik, ta'magirlik, birovlarini qon qaqshatish asosida boylik orttirishdan nafratlanadi, xalq qarg'ishidan cho'chiydi. Kimdagi ana shu insoniy fazilat mavjud bo'lsa, uni hamisha xiyonat, bediyonat va nopoklik yo'lidan qaytish, halollik, poklik, diyonat sari odimlashiga ko'maklashadi. Bir umr baxtli, yuzi yorug' bo'lishini istagan odam har doim halol eb-ichadi, haromdan jirkanadi.

Bunday qimmatli fikrlardan boshlang'ich sinflarning o'qish, ona tili, odobnoma, mehnat darslarida foydalanish o'quvchilarning nafaqat iqtisodiy bilimlarini rivojlantirishda, balki ularni halol, pok, birovning haqidan hazar qiluvchi, omonatga xiyonat qilmaslikka o'rgatuvchi, rostgo'y, mehnatsevar insonlar qilib tarbiyalashda ham katta ahamiyatga egadir. Shu bilan bir qatorda ajdodlarimizning bolalarga iqtisodiy ta'lim berishga qaratilgan qimmatli fikr-mulohazalaridan o'qituvchilar ham doimiy xabardor bo'lib, o'z faoliyatlarida ulardan foydalanishlari lozim.

Bizga malumki, o'tmishda hayotning iqtisodiy asoslarini o'rganishga xizmat qiladigan bilimlar oilalarda ota-onalar tomonidan hamda maktab va madrasalarda badiiy-ilmiy, tarixiy manbalar vositasida o'rgatilgan. Bu manbalarda kundalik hayotda uchraydigan barcha katta-kichik masalalar hox u iqtisodiy, moliyaviy sohada bo'lsin, hox ijtimoiy-mamuriy, qonunshunoslik doirasida bo'lsin o'z ifodasini topgan va hayotiy asosda tushunarli qilib ochib berilgan.

Chunonchi, Ali ibn Abu Bakr Marg'iloniyni «Muxtasar» (Shariat qonunlariga sharh) asari bunga misol bo'ladi⁸. Bu asarning ahamiyati shundaki, unda islom diniga muvofiq qonun-qoidalar, shu jumladan, iqtisodiy munosabatlar

⁸ Muxtasar: (Shariat qonunlariga qisqacha sharh) Nashrga tayyorlovchilar: R.Zohid, A.Dehton.-T.: Cho'lpon, 1994.-336 b.

ham ixcham shaklda bayon qilingan. Ushbu asarda sotuvchi va xaridor o`rtasida savdo-sotiq jarayonida yuz berishi mumkin bo`lgan muammolar aniq va tushunarli qilib echilgan.

«1. Oluv-sotuv bir molni ikkinchi mol barobariga ikki yoki undan ortiq kishilarning rozilashib almashtirishlaridir. Almashtiruvchilarning bir tomondagisi iyyob qilsa, yani oluv-sotuv qilayotganlarning so`zni avval aytadigani «sotdim» yoki «sotdingmi?» kabi so`zlardan birini aytsa, ikkinchi tomondagisi qabul qilsa, masalan, «oldim» yo «sotdim» kabi so`zlardan birini aytsa oluv-sotuv shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

So`zlashib qilinadigan oluv-sotuv muomalasi haqiqiy yoki hukman o`tgan zamonga dalolat qiladigan so`zlar bo`lishi kerak. Haqiqiy o`tgan zamonga dalolat qiladigan so`zlarning misoli «sotdim», «oldim», hukman o`tgan zamonga dalolat qiladigan so`zlarning misoli «sotdingmi?», «oldingmi?» kabi so`zlardir. Ammo sotuv-oluv shartnomasi kelajak zamonga dalolat qiladigan so`zlar bilan, masalan, «sotasanmi?», «olasanmi?», «sotaman», «olaman» kabi so`zlar bilan tuzilmas. Va yana ikki kishining bir-birlariga mollarini umuman so`zlashmay berishlari bilan sotuv-oluv shartnomasi uzil-kesil tuzilgan bo`ladi, u mollar oltin, kumushga o`xshash juda qiymatli bo`lsa ham yoki qovun-tarvuz, bodringga o`xshash oz qiymatli bo`lsa ham».

«1. Oldi-sotdi kelishgan vaqtda so`zni qat'iy qilib kesib, savdoni bitirgandan keyin molni yoqtirmaganidan yoki boshqa sababdan savdo qiluvchilarning biri savdoni buzishni xohlasa ham buza olmagan kabi savdoni qilayotgan vaqtda uch kun yo undan kam vaqtda qaytarishga yo olishga sotuvchining yo oluvchining yoki har ikkalasining ixtiyorli bo`lishlarini shart qilish durust. Buni ixtiyori shart deyiladi...

2. Shuningdek, pulni uch kun ichida bermagan taqdirda savdoni qaytarishga ixtiyorni shart qilib savdo qilish ham durust. Uch kun to`lguncha pulni to`lasa, savdo sobit bo`ladi hamda uch kundan ko`p vaqtda, masalan besh kunda ham pulni to`lay olmagan taqdirda qaytarishga ixtiyorni shart qilib savdo qilganda uch kun

to'lguncha to'lasa, savdo durustga aylanadi. Uch kun to'lguncha molning pulini to'lay olmasa savdo buzuladi».

Savdo-sotiq davrida molda bazi bir kamchiliklar uchrashi mumkin. Mana shunday vaqtda xaridor va sotuvchi o'rtasida har xil muammolar vujudga keladi. Muammolarning echimiga yordam beradigan fikrlar «Muxtasar» kitobida o'z ifodasini topgan. Masalan:

«1. Bir kishi bir narsani sotib olgach; narsada savdogarlar qoshida bahosi tushmasdan avvalgi aybini topsa ixtiyori bor: xohlasa narsani sotuvchisiga qaytaradi, xohlasa avvalda kelishgan bahosi barobariga oladi, ammo pulni avvalda kelishgandan kamaytira olmas.

8. Yong'oq va shunga o'xshash mag'izli narsalarni sotib olganda mag'izning yomonligi bazisini chaqib ko'rganda bilinsa qaralur: agar qolganlarining hammasi foydalanishga yaroqli bo'lsa, kamchiligiga yarasha bahosi sotuvchidan undirib olinur, ammo qolganlarining hammasi yo bazisi foydalanishga yaroqli bo'lmasa narsaning hammasini qaytarib berib, pulni qaytarib olinur.

10. Oluvchi narsada ayb borligini davvo qilsa, o'zi narsaning haqini sotuvchiga bermagan bo'lsa, aybning yo'qligi malum bo'lguncha pulni to'lashga oluvchi majbur qilinmas».

Savdoda xaridorlarning bir-biriga nisbatan hurmatda bo'lishlari kerakligi hamda kimoshdi savdosi haqida quyidagi fikrlar keltirilgan:

«26. Bir kishi bir narsani malum bahoga olishga kelishgandan so'ng ikkinchi kishining ortiq baho berib shu narsani olishi ham makruh.

31. Kimoshdiga, yani narsani pulni ko'proq berganga sotish makruh emas. Arablar bunday savdoni «bayi muzoyida» («kimoshdi savdosi») deydilar».

Bundan tashqari kitobda ijaraga berish va ijaraga olish to'g'risida qimmatli malumotlar ham berilgan. Asarda ijaraning iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yib olish, foydalanilmay yotgan mol-mulkni har ikki tomon uchun ham o'zaro manfaatli shaklda harakatga keltirish, ijarani har ikki tomonning roziligi asosida shartnoma bilan tasdiqlatib olish kabi bir qancha qoidalar o'z ifodasini topgan.

Ijaraning mazmuni shuki, ijara haqini o'sha zamoni berilmaydi, bunda esa ijara oluvchining ahvolini engillashtirish haqida quyidagi fikrlar keltirilgan: «3. Ijara oluvchig'a ijara haqin o'shal zahotiyoq bermoq vojib emas...».

Mulk ijaraga olingan bo'lsa-yu, undan foydalanilmasa ham ijara haqini to'lashlik shart ekanligi haqida asarning quyidagi sharhida uqtiriladi:

«4. Bas, birov o'zi turmoqlig' uchun bir uyni, masalan, bir oyga ijarag'a olsa, garchi bu uyda xech turmasa-da bir oy o'tgach aytgan haqin to'lamoqlik vojib bo'lur...».

O'quvchilarning so'z boyligini oshirishga oid mavzularni hamda ish-harakat manosi ifodalovchi so'zlarni o'rgatishda mashq matnlari sifatida bunday parchalardan foydalanish talim-tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunki bu matnlarni o'qish bilan o'quvchining iqtisodga oid bilimlari va tushunchalari kengayadi.

XI asrda yashab ijod qilgan O'rta Osiyo xalqlarining atoqli farzandi Mahmud Qoshg'ariyning bebaho «Devonu lug'otit turk» asari tilshunoslik tarixi va davr madaniy hayotida alohida sahifa ochgan⁹. Bu asar soddagina lug'at sifatida mashhur bo'lsa-da, unda ko'pgina hikmatli so'zlar, maqollar, qo'shiqlar va adabiy parchalar, iqtisodga oid bir qator tushunchalar ham keltirilgan. Hozirgi kunda Devon malumotlaridan o'quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini oshirishda unumli foydalanish esa samarali natijalar beradi. Asarda keltirilgan quyidagi parchalar bunga misol bo'la oladi:

«Qozon tubim oltin deb maqtansa, cho'mich: «Unday bo'lsa, men qaydaman?»-deydi». Bu masal o'zining kimligini biladigan tanish kishilar oldida maqtanuvchi kishiga nisbatan aytiladi. Masal o'quvchilarda kamtarinlik ko'nikmalarini shakllantiradi.

Quyidagi maqol esa ovqat yoki rizq uchun ortiqcha urinish va qayg'urish kerak emasligini anglatadi. «Molxonada buzoq tug'lsa, ariqda o'ti chiqadi».

⁹ Mahmud Qoshg'ariy. Devonu lug'otit turk (Turkiy so'zlar devoni). T.1-T.: O'zbekiston SSR fanlar akademiyasi nashriyoti, 1960.-200 b.

«Savdogarning moli toza, beshubha bo'lsa, yo'l ustida eydi». Bu maqol aytgan so'zining uddasidan chiqqan olmagan, quruq maqtanchoqlarga nisbatan qo'llaniladi.

Quyidagi matal o'quvchilarni yalqovlikni tashlash, g'ayrat bilan ishlashga undaydi. «Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonliq, chunki tirishqoq ko'p ishlab, yaxshi taomlar, go'sht, yog'lar topadi. Shu bilan u moy oshaydi. Erinchoq o'zining yalqovligi bilan ishdan qochadi, xafalikdan boshiga uradi, uni qonatadi».

Qarz oluvchi va qarz beruvchilar haqida quyidagi maqol keltirilgan. «Qarz beruvchi-arslon, qarz oluvchi-sichqon». Bu maqolda qarz beruvchi (puldor) hujum qilishga go'yo arslondir, qarzdor esa qo'rquv, vahima bosganidan sichqon kabidir, degan o'xshatma keltiriladi.

Quyidagi maqolda qo'ni-qo'shnilarni hurmat qilish, ularga yaxshilik qilish kerakligi haqida takidlanadi: «Qo'ni-qo'shnilaringga yaxshilik qil, ularni hurmatla. (Ulardan) biror sovg'a olsang, (undan) yaxshiroq mukofot hozirla».

Biron narsaga ehtiyoj sezilganda, foydalanish uchun qo'ldagini ehtiyot qilish kerakligi haqida ham asarda quyidagi maqol orqali uqtiriladi: «Yoqasiga to'kilgan ovqatni yalash bilan ovora bo'lgach kishi qo'lidagi kosa va shu kabi narsalardan ayriladi».

«Bo'sh narsaga ega yo'q»-degan maqol esa o'z molini puxta saqlashga undaydi.

«Quruq qoshiq og'izga yoqmas, quruq so'z quloqqa yoqmas»-degan maqol esa birovdan yordam so'rash uchun unga ham biron foyda ko'rsatish kerak, degan manoda qo'llaniladi.

Quyidagi maqol isrofgarchilikka qarshi hamda ishni boshida puxta o'ylab qilish kerakligiga undaydi. «Xitoy hoqonining ipak gazmoli ko'p, lekin o'lchamay kesilmaydi».

Asarning 403-betida keltirilgan sherda ilmi, aqlli odamlarga yaxshilik qilib, so'zlarini tinglash, ularning ilmlari, hunarlarini o'rganib, amalga oshirish kerakligi haqida maslahat beriladi. 465-betda keltirilgan sherda esa yoshlarga quyidagicha

nasihat qilinadi: «Ota-onang nasihatlarini eshit, gapingda ularning soʻzini qaytarma, koʻp mol topsang, oʻzingdan oʻtib quturma. Magʻrurlanib, felingni buzma».

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida yashab, ijod etgan mashhur oʻzbek pedagogi Abdulla Avloniy koʻplab mavzularda ilmiy asarlar yozgan. Uning ilmiy kitoblari orasida eng mashhur, mazmundor va puxta sanalgan asari «Turkiy guliston yohud axloq» boʻlib, u pedagogika, bola tarbiyasi va axloqiga bagʻishlanadi¹⁰. Bola tarbiyasida muallif u yashab turgan sharoit, muhit, kishilarning oʻrni katta ekanligini koʻrsatadi va bu sohada oila, maktab sharoitini ham nazar-eʼtiboridan chetda qoldirmaydi.

Avloniy mehnatni ulugʻlab, bolalarni hunar oʻrganishga chaqiradi, kishilarni biror kasb bilan shugʻullanishga undaydi.

Asarning bir bobi «Iqtisod» deb nomlanadi. Avloniyning fikricha, iqtisod, tejamkorlik, insonlar hayotining negizini tashkil etadi. Negaki, kishilar amalga oshirayotgan ishlarning rivoji, toʻplangan pul yoki molni qoʻldan boy bermaslik, ularni yanada koʻpaytirish uchun gʻoyatda tejamkor, ishbilarmon boʻlishlari darkor. «Iqtisod» tushunchasiga mashhur oʻzbek muallimi quyidagicha taʼrif beradi: «Iqtisod deb pul va mol kabi neʼmatlarning qadrini bilmakka aytilur. Mol qadrini biluvchi kishilar oʻrinsiz erga bir tiyin sarf qilmas, oʻrni kelganda soʻmni ayammas. Sahovatning ziddi baxillik oʻldigʻi kabi iqtisodning ziddi isrofdir. Alloh taolo isrof qilgʻuchilarni suymas ..».

Demak, tejamkorlik oʻzbek xalqining doim diqqat markazida turgan. Eyish, ichish, oʻqishdan ham aynan tejamkorlik, iqtisod va unga taalluqli madaniyat muhimroq oʻrinda turgan. Chunki bola oʻzida tejamkorlik tuygʻusini shakllantira borib, oʻz mehnatini ham qadriga etadigan boʻlib tarbiyalanadi. Buni anglab etishdan bolada oʻzi, ota-onasi va jamiyat yaratgan boyliklarning qadriga etish, ularni asrab-avaylash koʻnikma, malakasi paydo boʻla boshlaydi.

A.Avloniy bu boradagi fikrlarini davom ettirib, oʻz zamonasiga xos boʻlgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning mohiyatini aniq va ravshan ochib beradi.

¹⁰ Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq.-T.: «Oʻqituvchi», 1992.-160 b.

«Hozirgi zamonda maqsudga etmak, oʻz millatiga xizmat qilmak, xalqigʻa maqbul boʻlmak uchun ilm va mol lozimdir. Olamdagi hamma millatlarning hol va qudratlari mol va boyliklari ila oʻlchanadur. Har erda boy millatlar ogʻir kelub, pallani bosib xoʻja oʻlganidan faqirlari engib kelub, qul va asir boʻlib, osilib qoladur. Mol topmakning eng barakatli yoʻllari: hunarchilik, ekinchilik, chorvachilik, savdogarlikdir. Bularning har biriga ham bu zamonamizda bilim lozimdur. Bobolarimizning «boʻlsa boʻlar, boʻlmasa gʻovlab ketar» zamonlari oʻtub, oʻrniga «bilgan bitar, bilmagan yitar» zamoni keldi. Soʻzning qisqasi, hozirgi zamonga muvofiq kishi boʻlmak uchun ilm va maʼrifat ila barobar iqtisod, insof, tuganmas saʼy, bitmas gʻayrat lozimdir».

Avloniyni mulohazalariga koʻra, kishilar oʻz koʻzlagan maqsadlariga etishishlari, asosiysi oʻz millatiga xizmat qilishlari va xalq orasida, jamiyatda munosib oʻrin topishlari uchun ilm va mol zarur hisoblanadi. Kimning ilmi, orttirgan bilimlari, mol-mulki etarli va koʻproq boʻlsa, ana shu kishining oʻz jamiyati rivojiga qoʻshadigan hissasi yanada salmoqli boʻladi. Uning bu fikrlari zahirida barcha davrlar uchun ahamiyatli boʻlgan juda katta mazmun yotadi. Chunki ota-onalarga iqtisod ilmi hamisha zarur va u bolalarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashda juda qoʻl keladi.

Avloniy «Iqtisod» bobini shunday bayt bilan yakunlaydi:

«Xalq ichinda moʻʼtabar bir narsa yoʻq davlat kabi,
Boʻlmagay davlat jahonda quvvatu sihat kabi.
Iqtisod, insof ziynatdur vujudi odama,
Yaxshi neʼmat yoʻq kishiga saʼy ila gʻayrat kibi».

A.Avloniyni «Turkiy guliston yohud axloq» asari, undagi «iqtisod» bobi yosh avlodni yangi zamon talablari asosida tarbiyalash, iqtisodiy bilimdonlikni oshirish, iqtisodiy madaniyati va tafakkurini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Asardagi maʼlumotlardan boshlangʻich sinf oʻqish, odobnoma darslarida foydalanish yaxshi samaralar beradi. Shuning uchun bolalarni yoshlikdan tejamkorlik ruhida tarbiyalab borish kerak.

Tejamkorlik, halollik, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, to'g'rilik, insof, diyonat mavzulari xalq maqollarida ham o'z ifodasini topgan¹¹. Maqollar inson aql-zakovati, mehr-shafqati va uning buyuk yaratuvchilik qudratini o'ta ta'sirchan badiiy vositalar orqali ifodalaydi. Ular yuz yillar davomida avloddan-avlodga o'tib, xalqning tilida saqlanib kelmoqda. Xalq maqollaridan boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimdonligini oshirishda foydalanish ijobiy natijalarni beradi.

I.2. O'quvchilarda iqtisodiy malakalarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ijtimoiy hayotning barcha sohalarda bo'lgani kabi iqtisodiyot yo'nalishida ham keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Respublikada iqtisodiyotning bozor munosabatlari asosida rivojlantirish jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini chuqur anglagan holda sohada tub islohotlarni amalga oshirish, bozor infratuzilmasini yaratish, mulkni davlat monopoliyasidan chiqarish, ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirish, mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy mamlakatlar sarmoyalarini jalb etish maqsadga muvofiqdir. Mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirishni kafolatlovchi yana bir omil-bu barcha turdagi ishlab chiqarish ob'ektlarining malakali mutaxassislari bilan ta'minlanishiga erishishdan iborat. Bu yo'lda amalga oshiriluvchi faoliyat negizida aholi, shu jumladan, yoshlarga chuqur iqtisodiy bilimlarni berish, ularda yangi iqtisodiy tafakkurni shakllantirish tobora dolzarblik kasb etmoqda. Mavjud iqtisodiy sharoit yangicha iqtisodiy tafakkur va keng dunyoqarash hamda mustaqil fikrga ega bo'lgan yoshlarning ishlab chiqarish jarayonlarida faol ishtirok etishlarini taqozo etmoqda. Ushbu jarayon qanchalik tez sodir bo'lsa, o'tish davrida ko'zga tashlangan muammolarni tezkor hal etish, jamiyat iqtisodiy salohiyatining yuksalishi uchun zamin yaratadi.

Shu bois, iqtisodiyot asoslarini yoshlarga maktabdanoq singdirib borish,

¹¹ O'zbek xalq maqollari. To'plovchilar: Mirzayev T., Sarimsoqov B.-T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.-512 b

o'quvchilarni boshlang'ich iqtisodiy bilimlardan xabardor etish ijtimoiy ehtiyoj sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Ayni vaqtda ushbu ehtiyojning to'laqonli qondirilishi «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» talablarini amaliyotga joriy etishning ikkinchi bosqichi uchun mo'ljallangan rejalarni bajarish, jumladan, iqtisodiy ta'limni sifat va mazmun jihatidan yangi darajaga ko'tarish vazifasining o'z yechimiga ega bo'lishini ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» hamda Respublika Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish tug'risida»gi 203-son (1998 yil 13 may) va «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida»gi Qarorlariga (1999 yil 16 avgust) ko'ra 2001—2002 o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Iqtisodiy bilim asoslari" fani alohida fan sifatida o'qitilishi maqsadga muvofiq deb topildi. Shu bois 2001-2002 o'quv yilidan boshlab, VIII sinf, 2002-2003 o'quv yilidan boshlab esa IX sinf o'quvchilari iqtisodiy bilim asoslarini umumiy o'rta ta'lim maktablari sharoitida o'rgana boshladilar.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 1996 yil 29 apreldagi 92 – sonli buyrug'iga ko'ra barcha iqtisodiy bilim asoslarining o'rta ta'lim maktablarida maxsus o'quv dasturlari va o'quv qo'llanmalari asosida o'qitilishi uchun pedagogik va metodik asos yaratildi. Ayni vaqtda bu boradagi bilimlar boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar)da matematika, alifbo va o'qish kitobi fanlari tarkibida, umumiy o'rta ta'limda ona tili, xorijiy tillar, matematika, geografiya, davlat va huquq asoslari, texnologiya fanlari tirkibida olib borilishi bilan bir qatorda, VIII-IX sinflarda "Iqtisodiy bilim asoslari" fanining davlat komponentidagi saotlar hisobidan o'qitilmoqda.

1999 yilda "Iqtisodiy bilim asoslari" fanidan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari yaratilgan bo'lsa, o'tgan davr mobaynida akademik litsey, kasb–hunar kolleji va oliy o'quv yurtlarida ham iqtisodiy yo'nalishdagi fanlar bo'yicha didaktik manbalar yaratildi.

Iqtisodiy bilim asoslari davlat ta'lim standartida mazkur ta'limning maqsad

va vazifalari aniq belgilab berilgan. Unda qayd etilishicha, iqtisodiy ta'limni tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad: «O'quvchini iqtisodiy faoliyat sub'ekti sifatida qaralgan holda o'quvchilarning kelajakdagi hayot qobiliyatlarini oshirish va buning uchun iqtisodiy faoliyat tuzilishini o'rganish, undagi o'zining o'rnini his etish, zamonaviy iqtisodiy xulq – atvor normalarini, iqtisodiy madaniyatni egallash, zamonaviy iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, mehnat vositalariga va natijalariga tejamkorlik munosabatlarini tarbiyalashdan iborat».

Iqtisodiy ta'limning asosiy vazifalari esa quyidagilardan iboratdir:

- milliy mustaqillik, xalqimizning tarixiy, intellektual, ma'naviy va iqtisodiy merosini o'rgatish;

- vatanparvarlik, milliy g'ururni tarkib toptirish, rivojlantirish, iqtisodiyot ilmi rivojiga hissa qo'shgan qomusiy olimlarimiz ilmiy merosidan o'quvchilarni xabardor qilish;

- o'quvchilarning iqtisodiy savodxonligini oshirish;

- o'quvchilarda bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib, yangi iqtisodiy madaniyat va tafakkurni shakllantirish;

- zamonaviy iqtisodiy bilim asoslari va tadbirkorlik asoslarini singdirish;

- respublikamizning iqtisodiy salohiyati, olib borilayotgan iqtisodiy siyosat asoslari, bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillari bilan tanishtirish;

- o'quvchilarga yangi vujudga kelgan iqtisodiy shart-sharoitlar asosida yashash va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan eng muxim iqtisodiy bilim va malakalarni berish;

- o'quvchilarni jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarning iqtisodiy mohiyatini anglash, tahlil qilish, fikr yuritish va o'z munosabatini bildirish, iqtisodiyot bilan bog'liq bo'lgan muayyan hayotiy vaziyatlarda eng ma'qul yechim topa bilishga o'rgatish».

"Iqtisodiy bilim asoslari" fani o'quvchilar tomonidan uy xo'jaliklari, korxona, mamlakat va jahon iqtisodiyoti muammolarining nazariy asoslarining o'zlashtirilishini ta'minlovchi va bu sohada dastlabki tayanch bilimlarni beruvchi o'quv fani hisoblanadi. U o'quvchilarning kelgusida o'rta maktab, akademik litsey

va kasb-hunar kollejlarida iqtisodiy yo'nalishdagi boshqa fanlarni o'rganish imkonini yaratadi.

"Iqtisodiy bilim asoslari" fanini o'rganishlari davomida o'quvchilar:

- asosiy iqtisodiy tushuncha, faktlarni chuqurroq bilish;
- zamonaviy iqtisodiyot va uning rivojlanish qonuniyatlari, tamoyillari va muammolarining mohiyatini tushunish va baholash;
- davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini tushunish va baholay olish haqida tasavvurga ega bo'lish;
- tadbirkorlik faoliyatining amaliy asoslarini bilish, amalda qo'llay olish malakasiga ega bo'lish;
- iqtisodiy ma'lumot va axborotlarni tahlil qila olish kabi bilim, malaka va ko'nikmalarini o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladilar.

Keyingi yillarda pedagogik yo'nalishda o'quvchilar o'rtasida iqtisodiy bilimlarni targ'ib etish va samaradorlikka erishish masalalari yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi. Jumladan, L.P.Fridman iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda quyidagi vazifalarning ijobiy hal etilishi zarurligini ko'rsatib o'tadi: o'quvchilar tomonidan iqtisodiy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish; o'quvchilarda mehnatni takomillashtirish va kam kuch sarflab maksimal yutuqlarni qo'lga kiritish imkonini beruvchi iqtisodiy ko'nikma va malakalarni shakllantirish; shaxsning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlovchi axloqiy-iqtisodiy sifatlarini tarbiyalash.

Iqtisodiy ta'lim – tarbiyani amalga oshirishda quyidagi masalalarga e'tibor qaratish uning samaradorligini oshiruvchi omillardan biri hisoblanadi: mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti zamonaviy bosqichining o'ziga xos xususiyatlari va xalq xo'jaligini yuksaltirishni ta'minlash masalalari, ishlab chiqarish bo'yicha davlat buyurtmalarini bajarishning mohiyati, ishlab chiqarish mehnati samaradorligini oshirish hamda har bir ishlab chiqarish o'rnida mahsulotlarni sifatli tayyorlash yo'llari, zamonaviy ishlab chiqarishning samaradorlik ko'rsatkichlari, mehnatni tashkil etishning asosiy tushunchalari, mohiyati, xo'jalik hisob — kitoblari hamda boshqalar; mehnat musobaqalarining roli; ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish

borasidagi ilg'or tajribalarni ommalashtirish va boshqalar.

X.Xudayqulov esa o'z tadqiqotida bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilar o'rtasida iqtisodiy tarbiyani tashkil etishning ijtimoiy ahamiyati, uni samarali tashkil etish yo'llari to'g'risida to'xtaladi. Muallif iqtisodiy tarbiyaning muhim vazifalari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi:

- jamiyatning har bir a'zosi bo'lgan shaxs o'z muqaddas burchi va sharaflari ishi bo'lgan mehnatga ongli va ijodiy munosabatini tarbiyalash;

- bozor iqtisodiyoti qoida - qonunlarini tezda o'zlashtirib, o'z kundalik ish faoliyatlariga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish;

- tarbiya shaxsni ijtimoiy tashabbuskorligini rivojlantirishga, ishlab chiqarishni va korxonalarni boshqarishda ishtirok etishga ko'maklashadi;

- jamiyat a'zolari bo'lgan har bir shaxsdan o'z kichik bizneslarini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan tadbirkorlik, ishbilarmonlik kabi xislatlarni shakllantirish;

- mustaqil Respublikaning mas'uliyatli a'zosi hamda ishlab chiqarish jabhasining xo'jayini tuyg'usini mustahkamlaydi.

V.A.Tolstik tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanish umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida iqtisodiy tarbiyani tashkil etishda oila, o'quv yurti hamda jamoatchilik hamkorligi imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasini tadqiq etishga yo'naltirilgan.

Muallifning fikricha, ta'lim jarayonida o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish hamda ular tomonidan mazkur bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilishi (iqtisodiy qonunchilik, jamiyat taraqqiyoti, mulkka egalik tamoyillari va metodlari, hukumat tomonidan iqtisodiy sohada olib borilayotgan siyosat, ishlab chiqarishni tashkil etish va mehnat resurslarini tejash, mehnat taqsimoti, ijtimoiy-ishlab chiqarish ehtiyoji va mahsulotlarni ayirboshlash, iqtisodiy tahlil ko'nikmasiga ega bo'lish, ishlab chiqarish xo'jaligini oqilona yuritish va hokazolar to'g'risidagi nazariy bilimlarni berish); maqsadga muvofiq, tashkiliy va iqtisodiy jihatdan samarali sanalgan o'quvchilarning ijtimoiy-foydali ishlab chiqarish mehnatini tashkil etish; vaqtdan oqilona foydalanish, moddiy

boyliklar, tabiat hamda pulga nisbatan ehtiyotkorona va iqtisodiy onglilik asosida yondashish ko'nikmalarini qaror toptirishga xizmat qiluvchi darsdan va maktabdan tashqari ishlar, shuningdek, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish kabi pedagogik harakatlar iqtisodiy ta'lim-tarbiya samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mehnat jamoasi, ota-onalar va mikromuhit (mikrorayon)larda istiqomat qiluvchi jamoatchilikning iqtisodiy bilimlar samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyatiga alohida urg'u beriladi.

I.A.Sasova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotda muallif asosiy e'tiborni o'quvchilarda iqtisodiy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillarni yoritishga qaratilgan. Muallifning fikricha, o'quvchilarni ma'lum brigadalarga birlashtirish asosida kichik ko'lamda ishlab chiqarishni tashkil etish iqtisodiy ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. O'quvchilar ishlab chiqarish brigadalarining ijara tizimida faoliyat yuritishi ish o'rinlari, zarur asbob-uskunalarga ega bo'lish imkonini beradi. O'quvchilar ishlab chiqarish brigadalariga jalb etish mavjud iqtisodiy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish; ularni yanada boyitish; nazariy bilimlarni amaliyotga joriy etish ko'nikma va malakasiga ega bo'lish; iqtisodiy tafakkurni shakllantirishdek qator afzalliklarga ega.

I.A.Sasovanning ko'rsatishicha, shaxsda tejamkorlik sifatini tarbiyalash iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilanishi zarur. Zero, tejamkorlik iqtisodiy ishlab chiqarishning asosi bo'lib, u o'quvchilarda mavjud tabiiy boyliklardan maqsadli va nes-nobud qilmay foydalanish, ularni ko'paytirishga nisbatan mas'uliyatli yondashuvni qaror toptiradi.

O'quvchilarning iqtisodiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari ijtimoiy-pedagogik ahamiyatga egadir. I.A.Sasovanning fikricha, o'quvchilarning iqtisodiy tayyorgarligi ular tomonidan iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, shaxsda moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishning samaradorligi va sifatini oshirish, ularni taqsimlash, ayirboshlash va ehtiyojni qondirish borasidagi iqtisodiy ahamiyatga ega sifatlar, ya'ni, iqtisodiy tafakkur va xulq-atvorning shakllanishi, zamonaviy hamda istiqbol ishlab chiqarishda shaxsiy, shuningdek,

ijtimoiy manfaatlarni uyg'unlashtira olish jarayonini anglatadi.

Keltirilgan fikr-mulohazalardan anglanadiki, o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish va iqtisodiy ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish yo'llari quyidagilardir:

1.Iqtisodiy ta'lim-tarbiyani maqsadga muvofiq, izchil, tizimli amalga oshirish.

2.Iqtisodiy ta'lim va tarbiya o'rtasida, shuningdek, fanlararo o'zaro aloqadorlikka erishish.

3.Iqtisodiy ta'lim va tarbiyani tashkil etishga nisbatan texnologik yondashuvni qaror toptirish (muammoli vaziyatlarni yaratish, ekskursiyalar, interfaol metodlar va rolli o'yinlardan samarali foydalanish).

4.O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy iqtisodiy bilimlarni amaliyotga joriy etilishi uchun zarur shart — sharoitni yaratish.

5.O'quvchilarni ishlab chiqarish jarayoniga faol jalb etish (to'garaklar, o'quvchilar ishlab chiqarish brigadalari yoki jamoalarini shakllantirish asosida).

6.Oila, ta'lim muassasalari hamda jamoatchilik hamkorligi asosida o'quvchilarda iqtisodiy ko'nikma va malakalarini tarbiyalash.

7.O'quvchilarda tejamkorlik sifati, shuningdek, oldi – sotdi munosabatlarini samarali tashkil etish ko'nikma va malakalarining tarbiyalanishiga jiddiy e'tibor qaratish.

8.O'quvchilarda mehnat faoliyatining mahsuli bo'lgan pul (moddiy boylik)ga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish hamda oila xo'jaligini oqilona yuritish malakasini shakllantirish.

Mavzularni o'qitishda e'tiborni nazariy bilimlarni chuqurlashtirish va ularni amaliyotda qo'llashga qaratish lozim. Shu bois, dars mashg'ulotlarini interfaol usullar asosida olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, o'rganilayotgan nazariy bilimlar va amaliy malakalar o'quvchilarning kelgusi amaliy faoliyatlari, jumladan, turli vaziyatlarda qo'llay olish to'g'risida ma'lumot berib borish maqsadga muvofiqdir. Mashg'ulotlarni olib borishda an'anaviy dars, amaliy mashg'ulotlar, noan'anaviy dars shakllaridan foydalanish, tashkiliy —

faoliyatli va ish o'yinlari, bahs – munozaralarni o'tkazish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Qonunlari, Respublika Prezidenti Sh.M.Mirziyoev asarlarini o'rganish va ular ustida ishlash, o'qitishning texnik vositalari, kompyuter va informatsion texnologiyalarni qo'llash, korxona, bank, birja, bozor, va ko'rgazma markazlari kabi qator muassasalarga ekskursiya tashkil qilish usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning ijodiy faooligini rivojlantirish uchun ularga iqtisodiy bilimlarning rivojlanish tarixi va muammolari bo'yicha mustaqil ishlar berish, Prezident asarlari va qo'shimcha adabiyotlar asosida referatlar yozishga e'tiborni qaratish o'quvchilarning nazariy iqtisodiy bilimlarini mustahkamlash va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlariga yordam beradi.

1997–1998 o'quv yilida ayrim umumiy o'rta ta'lim maktablarida tajriba tarzida «Iqtisodiy bilim asoslari» fanining o'qitish jarayonida iqtisodiy ta'limni tashkil etish borasida hali yetarli darajada tajribalar to'planmaganligi, ham pedagogik, ham iqtisodiy bilimlarni puxta o'zlashtirgan maxsus ma'lumotga ega fan o'qituvchilarining yetishmasligi, ularga nazariy va metodik yordam ko'rsatish hamda ularni o'quv-uslubiy manbalar bilan qurollantirishga bo'lgan ehtiyoj bu yo'lda keng ko'lamli amaliy harakatlarni tashkil etishga turtki berdi. O'quv fani bo'yicha jahon standartlari talablariga muvofiq yaratilgan tsikli o'quv adabiyotlari ayni vaqtda o'quvchilar tomonidan iqtisodiy bilimlarning chuqur va puxta o'zlashtirilishi uchun zamin yaratmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlari, jumladan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy ta'limni izchil, uzluksiz va tizimli tashkil etilishiga erishish, ushbu o'quv yurtlarida iqtisodiy bilimlarning murakkablik darajasiga ko'ra bosqichma-bosqich o'qitilishini ta'minlash, asosiy ixtisoslik tushunchalarni ifodalovchi to'plamlar, shuningdek, muqobil variantli o'quv adabiyotlarini yaratish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'quvchilarning uy-ro'zg'or, oila xo'jaligini yuritish, imkon qadar tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda boshlang'ich bilim, ko'nikma va

malakalariga ega bo'lishlari ularning kelgusida mamlakat iqtisodiyoti ravnaqiga munosib hissa qo'sha oluvchi mutaxassislar bo'lib yetishlarida dastlabki qadam bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, shuningdek, o'quvchilarning kelgusida malakali ishchi kuchi; mas'uliyatli fuqaro; bilimdon iste'molchi; ehtiyotkor jamg'aruvchi va uddaburon, tadbirkor sarmoyador, global iqtisodiyot ishtirokchilari hamda savdo-sotiq, oila xo'jaligi, ijtimoiy boshqaruv, moddiy boyliklarga nisbatan munosabatda tadbirli shaxs bo'lish imkoniyatini yaradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilariga iqtisodiy bilimlarni berish shaxs iqtisodiy madaniyatini shakllantirishning muhim bosqichi sanaladi. Binobarin, mazkur bosqichda o'quvchilar tomonidan iqtisodiy bilimlarning tayanch asoslari o'zlashtirilib, bozor iqtisodiyoti sharoitida oldi-sotdi munosabatlarini tashkil etish qoidalari bilan yaqindan tanishish, ushbu jarayonning ishtirokchisi sifatida faoliyat yuritish ko'nikma va malakalariga ega bo'lish uchun zarur bo'lgan pedagogik shart-sharoit mavjud.

Bir qator iqtisodiy tushunchalar umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy ta'limning mohiyatini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Ana shuni nazarda tutgan holda ulardan ayrimlarini sharhlashga harakat qildik. Xususan:

Iqtisodiy tushuncha — iqtisodiyot, xo'jalik faoliyati, ishlab chiqarish, iqtisodiy munosabatlar mohiyatini anglatuvchi muayyan so'z yoki ibora.

Iqtisodiy bilim – ishlab chiqarish jarayonining mohiyati hamda iqtisodiy munosabatlar mazmunini yorituvchi asosiy ma'lumotlar majmui.

Iqtisodiy ta'lim – davlat ta'lim standartlari, maxsus o'quv dasturiga muvofiq tashkil etiluvchi hamda o'quvchilarga nazariy iqtisodiy bilimlarni berish asosida ularda iqtisodiy tafakkurni hosil qiluvchi o'quv jarayoni.

Iqtisodiy tarbiya – o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-iqtisodiy bilimlarga tayangan holda ularda muayyan sifat (tejamkorlik, tadbirkorlik, oqillik, uddaburonlik, kommunikativlik, vaziyatni to'g'ri baholay olish, mehnatsevarlik, ishchanlik hamda boshqalar) hamda iqtisodiy faoliyat ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Iqtisodiy savodxonlik – ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyati, iqtisodiyot, iqtisodiy munosabatlar borasidagi boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'lish.

Iqtisodiy faoliyat – shaxsning ishlab chiqarish, xo'jalikni yuritish va iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish yo'lida amalga oshirayotgan hatti-harakatlarining umumiy ifodasi.

Tadbirkorlik – mustaqil mablag'lar negizida muayyan yo'nalishda ishlab chiqarish, savdo-sotiq yoki maishiy xizmatlarni olib borish evaziga daromad, foyda olishga yo'naltirilgan faoliyat.

Iqtisodiy madaniyat – shaxs tomonidan nazariy va amaliy iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirishning eng yuqori darajasi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida iqtisodiy ta'limni yo'lga qo'yishda fanlararo aloqadorlik va bog'liqdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berishda matematika (talab va taklifni aniqlash, valyuta kurslaridan xabardor bo'lish, qimmatbaho qog'ozlar bozorida faoliyat yuritish, ishlab chiqarish samaradorligini aniqlash, davlat (yoki oila) byudjeti, zahira hamda ehtiyojlar miqdorini aniqlash, mulkiy munosabatlarni tartibga olish, mavjud boyliklardan tejab-tergab foydalanish va hokazolarni amalga oshirishda), tarix (natural xo'jalik, ishlab chiqarish, ayirboshlash, pul hamda bozor munosabatlari kabilarning rivojlanish, shuningdek, turli iqtisodiy tizimlarning shakllanishi va iqtisodiy tashkilotlarning tashkil topish tarixi), geografiya (iqtisodiy hududlar, mehnat taqsimoti, iqtisodiy integratsiya, ijtimoiy-iqtisodiy ob'ektlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar, xo'jalik yuritish faoliyati shakllari va hokazolar to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish), mehnat (ishsizlik, mehnat shartnomalari, mehnat bozori, mehnatga haq to'lash, raqobat, tadbirkorlik va boshqalarning mohiyatini tushunish) va huquq (mulkiy munosabatlar, xo'jalik yuritish, firmalar ochish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, soliq siyosati, kredit, mahsulotlarni ayirboshlash, zahiralar va boshqalarning mohiyatini anglash) kabi fanlar muayyan imkoniyatlarga ega. Shu bois umumiy o'rta ta'lim maktablarida ushbu imkoniyatlardan foydalanish muvaffaqiyatga erishishni kafolatlaydi,

Iqtisodiy ta'lim samaradorligini ta'minlashda fan o'qituvchilarining roli va

o'zni katta bo'lib, ularning o'z fani asoslarini chuqur bilishlari, pedagogik va metodik mahoratga ega bo'lishlari darslarning qiziqarli tashkil etilishi, o'quvchilarning vaqtlarini isrof qilmaslik borasida alohida e'tiborga sazovor. Shu bois pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak malakali iqtisodiyot fani o'qituvchilarini tayyorlash, ularning o'z ustlarida doimiy ish olib borishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish, ularni qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslariga faol jalb etgan holda kasbiy mahoratlarini oshirib borishga alohida e'tibor qaratish, yagona ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat yuritayotgan o'quv muassasalari (maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim muassasalari) o'rtasida o'zaro integratsiyaning yuzaga kelishini ta'minlash ta'limiy samaradorlikka erishishning asosiy kafolati sanaladi.

Rivojlangan mamlakatlar ta'lim muassasalarining iqtisodiy ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yish tajribalari bilan tanishish, zarur o'rinlarda ulardan maqsadga muvofiq foydalanish ham «Iqtisodiy bilim asoslari» fani bo'yicha ta'lim samaradorligiga erishishga xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining ilg'or xorijiy mamlakatlarda xizmat safarida bo'lishlari, chet ellik hamkasblari erishayotgan yutuqlar bilan tanishishlari, ular bilan o'zaro tajriba almashishlari hamda orttirgan tajribalaridan amaliy faoliyatlarida samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish ham iqtisodiy ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Ana shu maqsadda o'tgan yillar mobaynida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi va Respublika ta'lim Markazi tashabbusi va homiyligida iqtisodiyot fani o'qituvchilarining xorijiy mamlakatlarga xizmat safarlari uyushtirildi. Bugungi kunda mazkur safarda bo'lgan o'qituvchilar o'zlashtirgan tajribalari asosida iqtisodiyot darslarini tashkil etmoqdalar.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar tomonidan iqtisodiy bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini o'rganib borish, tahlil qilish ham mohiyatiga ko'ra iqtisodiy ta'lim samarasini ta'minlaydi.

1-bob bo'yicha xulosalar:

Bugungi kunda ta'lim jarayonining bosh maqsadi o'quvchilarni uzluksiz rivojlantirib borgan holda ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashdan iboratdir. Ijtimoiy munosabatlarga kirishning eng muhim belgisi esa iqtisodiy bilimdonlikda namoyon bo'ladi. Shuning uchun iqtisodiy bilimdonlikka oid ko'nikmalarni boshlang'ich sinflardan boshlab rivojlantirib borish bugungi kunda tobora ko'proq ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga iqtisodiy bilim berishga xizmat qilayotgan metodik qo'llanma, dastur, darsliklarning mazmunini tahlil qilish hamda shu sohada amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va ta'lim jarayoni oldiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmani o'rganish natijasida, boshlang'ich sinf o'quvchilarining iqtisodiy bilimlarini modulli texnologiyalar vositasida rivojlantirishning didaktik asoslarini ishlab chiqish pedagogika fanida o'z echimini kutayotgan dolzarb muammo ekanligini aniqlash imkoniga ega bo'ldik.

Ajdodlarimizning bolalarga iqtisodiy ta'lim berish sohasidagi boy meroslarini tahlil qilish asosida ulardan bugungi kunda o'quvchilarning iqtisodiy bilimdonligini rivojlantirishda ta'lim jarayonida keng foydalanish ehtiyoji mavjudligini ko'rsatdi.

Kasbiy mahorat ko'riklari ishchilarda o'z kasbini va ishini sevish fazilatlarini namoyish qilishini va yoshlarda bundan keyinga ko'riklarda ham muvaffaqiyatli qatnashish istagini tug'dirishini ko'rsatish, bo'lajak iqtisodchi-mutaxassislarda mehnat bilan faxrlanish, mahoratlilikka intilish, o'z kasbini sevish tushunchalarini shakllantiradi va rivojlantiradi.

II BOB

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA IQTISODIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHDA O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISHNING AMALIY ASOSLARI

II.1. O'quv fani - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni beruvchi asosiy manba

Mustaqillik yillarida jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar hamda iqtisodiy sohada olib borilayotgan davlat siyosati mazmunidan kelib chiqib, shuningdek, iqtisodiyotni yanada rivojlantirish borasidagi ehtiyojni qondirish maqsadida aholi, shu jumladan, yoshlar o'rtasida iqtisodiy ta'lim–tarbiyani tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dastlab ta'lim muassasalarining didaktik imkoniyatlariga tayangan holda barcha muayyan turdagi o'quv yurtlarida iqtisodiy ta'limni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb topildi. Ana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 1996 yil 29 – apreldagi 92 – sonli buyrug'iga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarida uzluksiz, izchil va tizimli ravishda iqtisodiy ta'limni tashkil etish yo'lga qo'yildi. Qayd etilgan buyruq talablari bo'yicha I–IV sinflarda o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish – matematika, alifbo va o'qish fanlari, V–XI sinflarda ona tili, xorijiy tillar, matematika, geografiya, davlat va huquq asoslari, texnologiya fanlari tarkibida o'qitilishiga erishish bilan birga davlat komponentidagi soatlar hisobidan IX–XI sinflarda «Iqtisodiy bilimlar asoslari» («Iqtisodiyot va biznes asoslari») fanining o'quv jadvaliga kiritish nazarda tutilgan va amaliy harakatlar boshlangan edi.

Bizga yaxshi ma'lum, 1997 yil avgust oyida bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiya respublikada uzluksiz ta'lim tizimini qayta shakllantirish, ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish yo'lida tarixiy o'zgarishlarni boshlab berdi.

Davlat ta'lim standarti hamda o'quv dasturida umumiy o'rta ta'lim maktablarida amalga oshiriluvchi iqtisodiy ta'limning maqsad, vazifalari, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan minimum talablar to'g'risida

so'z yuritilishi bilan birga o'quv fanining mohiyati ham yoritiladi. Chunonchi, "Iqtisodiy bilim asoslari" fani uy xo'jaliklari, korxona, mamlakat va jahon iqtisodiyoti muammolarining nazariy asoslarini anglab yetishga yordam beruvchi va bu sohada dastlabki tayanch bilimlarni beruvchi o'quv fani hisoblanadi. U o'quvchilarni kelgusida o'rta maktab, akademik litsey va kasb – hunar kollejlari iqtisodiy yo'nalishdagi boshqa fanlarni o'rganish imkonini yaratadi.

Ushbu manbada ko'rsatilishicha, yuqorida nomlari keltirilgan fanlarni o'rganish natijasida o'quvchilar quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'ladilar:

- asosiy iqtisodiy tushuncha, faktlarni chuqurroq bilish;
- zamonaviy iqtisodiyot, uning rivojlanish qonuniyatlari, tamoyillari va muammolari mohiyatini tushunish va baholash;
- davlat iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlarini tushunish va baholay olish haqida tasavvurga ega bo'lish;
- tadbirkorlik faoliyatining amaliy asoslarini bilish, amalda qo'llay olish malakasiga ega bo'lish;
- iqtisodiy ma'lumot va axborotlarni tahlil qila olish va ulardan o'z faoliyatida foydalana olish.

O'quv dasturida o'rin olgan mavzularni o'rganish chog'ida e'tibor o'quvchilarning nazariy bilimlarni boyitish, ularni amaliyotda qo'llashga qaratish lozim. Shu bois, mashg'ulotlarni interfaol usullar asosida olib borish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, o'rganilayotgan nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalardan o'quvchilar kelgusi amaliy faoliyatlarida qanday sharoitlarda foydalana olishlari mumkinligi to'g'risidagi ma'lumotlar berib boriladi.

«Iqtisodiy bilimlar asoslari» fani bo'yicha tashkil etiluvchi mashg'ulotlar jarayonida an'anaviy dars, amaliy mashg'ulotlar hamda noan'anaviy dars shakllaridan foydalanish, tashkiliy – faoliyatli va ishchanlik o'yinlari, bahs – munozaralarni tashkil etish, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, me'yoriy hujjatlar, shuningdek, Respublika Prezidenti asarlaridan maqsadga muvofiq va o'rinli foydalanish, ta'limning texnik vositalari, kompyuter va axborot

texnologiyalarini qo'llash, korxona, bank, birja, bozor va ko'rgazmalarga ekskursiyalar uyushtirish, amaliy–treninglarni tashkil etish kabi shakl, metod va vositalardan foydalanish iqtisodiy ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillar hisoblanadi. O'quvchilarning ijodiy faolligini oshirish maqsadida ularga iqtisodiyot ilmining rivojlanish tarixi va muammolariga oid mavzularda mustaqil ishlarni topshirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, iqtisodiy masalalar to'g'risida so'z yuritilgan nutqlari, shuningdek, iqtisodiyot, jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi, makroiqtisodiyot, tadbirkorlik faoliyati va uni tashkil etish haqidagi o'nlab mavzular bo'yicha referatlarni tayyorlashga alohida e'tibor berish ko'zda tutilgan maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Iqtisodiy ta'lim bo'yicha davlat ta'lim standartida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar tomonidan iqtisodiy bilimlar asoslarini quyidagicha belgilangan:

Ehtiyojlarning cheksizligi, resurslarning chegaralanganligi; ishlab chiqarish; ayirboshlash, tovar, pul; tovar – pul almashuvi; chiqimning tashkil etuvchilari; daromad va foydani hisoblash, taqsimlash; oila xo'jaligini yuritishning umumiy qoidolari, oila byudjeti; mehnat taqsimoti; texnologiya taraqqiyoti; iqtisodiy tizimlar; O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi o'ziga xosliklar; besh tamoyili; mulk va mulkiy munosabatlar; mulk shakllari; xususiylashtirish; bozor sharoitida tovar – pul munosabatlari; narxlar; taklif; talab; talab va taklifning o'zaro munosabati; taklif va talabning narxga bog'liqligi; raqobatning bozordagi o'рни; raqobatni tiklashga harakatlar; monopoliyaga qarshi kurash; tabiatni muhofaza qilish; chiqindisiz texnologiya.

Biznes va biznesmen (tadbirkorlik va tadbirkor); firma ochish va firmaning turlari; firmani joylashtirish; boshqaruv (menejment) san'ati; boshqaruv elementlari; maktab xo'jaligini boshqarish; menejerning sifatleri; tadbirkorning sifatleri; tadbirkor – boshqaruvchi sifatida; tadbirkor va xodim; biznesda hisob–kitob va tahlil; firmaning mablag'lari; marketing tushunchasi; marketing elementlari; reklamaning marketing tizimidagi o'рни; narxga ta'sir etuvchi omillar; bog'liq va to'ldiruvchi tovarlar; narx va taklif chizig'ining harakati; biznes va

davlat; davlatning harajatlari; davlat mablag'lari va ularni to'plash vositalari; soliqlar va ularning turlari; O'zbekiston Respublikasi soliq tizimi; banklarning iqtisodiyotdagi o'rni; banklarning turlari; bank mablag'larining to'planishi va sarflanishi; xalqaro bozor; eksport; import; bojxona to'lovlari; O'zbekiston jahon bozorida; ishsizlik; ishsizlik darajasi; mehnat birjalari; jamoat jamg'armalari; O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti davridagi taraqqiyoti; Ishlab chiqarish; birlamchi ishlab chiqarish; ikkilamchi ishlab chiqarish; uchlamchi ishlab chiqarish; ishlab chiqarish omillari; ishlab chiqarish samardorligi; natural xo'jalik; mehnat taqsimoti; ishsizlik; iqtisodiy tizimlar; iqtisodiy tizimlarning turlari; an'anaviy iqtisodiyot; markazlashgan rejali iqtisodiyot; bozor iqtisodiyoti; aralash iqtisodiyot; talab; talab qonuni; talab egri chizig'i (grafigi); talab funktsiyasi; talab shkalasi (jadvali); «normal» tovarlar; «past tabaqali tovarlar», «giffen tovarlar», o'rnini bosuvchi tovarlar; to'ldiruvchi tovarlar; egiluvchan va noegiluvchan tovarlar; taklif; taklif miqdori; taklif qonuni; taklif egri chiziri (grafigi); taklif funktsiyasi; taklif shkalasi (jadvali); taklif egri chizig'i (grafigi); taklifning egiluvchanligi; muvozanat narx; to'yingan bozor; taqchil bozor; talab va taklif miqdorlari muvozanatlangan bozor; talab va taklif grafiklarining kesishish nuqtasi; iste'mol; chegaraviy naflilik; kamayuvchi chegaraviy naflilik qonuni; iste'molchining mustaqilligi; iste'molchilarning huquqlari; reklama; daromadlar; ish haqi; jamg'arma, jamg'arma foizi; sug'urta; sug'urta kompensatsiyasi; suturta shartnomasi; xarajatlar; zaruriy xarajatlar; erkin xarajatlar; minimal iste'mol byudjeti; nominal va real daromadlar; farovonlik darajasi; iste'mol krediti; garov; firma; kapital; investitsiya; foyda; tadbirkorlik; tadbirkor; bankrotlik; ishlab chiqarish xarajatlari; ko'lam samarasi; raqobat; monopoliya; oligopoliya; monopolistik raqobat; tadbirkorlikni tashkil qilish; firma; firmaning turlari; xususiy firmalar; xo'jalik shirkatlari (jamiyatlari); aktsionerlik jamiyatlari; ishlab chiqarish kooperativlari; unitar korxonalar; sho'ba xo'jalik jamiyati; qaram xo'jalik jamiyati; qimmatli qog'ozlar bozori; aktsiyalar bozori; fond birjasi; aktsiyalar kursi; kompaniya narxi; pul; pul bozorlari; banklar; bank zahiralar; ijtimoiy ne'matlar; davlat sektori; xufyona iqtisodiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining

o'quvchilari yuqorida keltirilgan iqtisodiy bilimlarni o'zlashtirish bilan birga quyidagi ko'nikma va malakalarga ham ega bo'lishlari zarur:

- ma'lum shartlar asosida ayirboshlashni tashkil qilish;
- tanlov natijasiga ko'ra muqobil qiymatni aniqlash;
- ishlab chiqarish imkoniyatlari sohasini aniqlay bilish;
- talab va taklif egri chiziqlarini chizish va ular asosida muvozanat narxlarini topa bilish;
- oila xarajatlari va daromadlari miqdorini aniqlash va byudjetini tuzish;
- mahsulot tannarxi, ishlab chiqarish narxi, chakana va ulgurji narxlarni aniqlay bilish;
- shartli korxona misolida uning chiqimi, daromadi, foyda va zarari, rentabelligi va mehnat unumdorligini aniqlay bilish;
- bank krediti va omonat bo'yicha yillik foiz stavkasi asosida qarz va omonat foizini topish;
- ma'lum sodda shartlar asosida vaqtbay va ishbay haq miqdorini aniqlash;
- aktsiyadan olinadigan dividendni hisoblash;
- ma'lum shartlar asosida turli xil soliqlarni hisoblay olish;
- yalpi milliy mahsulot, milliy daromadni shartli masalalarda hisobga olish, tahlil qilish va taqqoslay bilish;
- aholi jon boshiga tug'ri keladigan yalpi milliy mahsulot hajmini aniqlay bilish;
- taklif va talabga ta'sir etuvchi omillarni aniqlay olish;
- umumiy xarajat, daromad funktsiyalariga ko'ra foyda funktsiyasini aniqlash, foyda va zarar sohalarini ajratish;
- korxonaning zarar ko'rmaslik nuqtasini aniqlash;
- korxona iqtisodiy faoliyatini tahlil qilish;
- sodda shartli misolda buxgalteriya balansini tuzish, aktiv va passivlarini aniqlash;
- eng sodda biznes rejalarini tuza olish;
- sof foydani hisoblash;

- aktsiyaning nominal va bozor qiymatini aniqlash; aktsiya kursini aniqlash;
- ishsizlik darajasini topa bilish;
- ma'lum sodda shartlar asosida shartli davlat byudjetining xarajat va daromad qismlarini aniqlash;
- pul muomalasi qonuniga ko'ra pul massasi, aylanish tezligini topa bilish;
- inflyatsiya darajasini hisoblay bilish;
- eksport va import bo'yicha to'lov balansini aniqlash;
- ma'lum shartlarda mamlakat uchun eksport va importning qay biri maqbul bo'lishini aniqlash;
- iqtisodiyot fanining mohiyatini tushunib yetish;
- ehtiyajlarning turlarini, ularning talab darajasiga qarab tasnif qila olish va ehtiyajlar bilan ularni qondirish uchun zarur bo'lgan zahiralar nomutanosibligini anglash;
- iqtisodiyotdagi asosiy muammolar ma'nosini tushunib yetish va ularni yechish iqtisodiyot fani oldida turgan bosh masala ekanligini idrok qilish;
- moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish zarurligini anglash, ishlab chiqarish omillari va ularning vazifalarini farqlay bilish;
- natural xo'jalik munosabatlarining asosiy noqobilliklarini va shu noqobilliklar ayirboshlashni zarur qilib qo'yganligini tushunib yetish;
- tovar xo'jaligi va ayirboshlashning ixtisoslashuv va mehnat taqsimoti natijasida vujudga kelganligini idrok qilish;
- qimmatli qog'ozlar bozori bozor infratuzilmasining muhim qismi ekanligini anglash;
- fond birjasi vazifalarini va unda qatnashuvchilarning rollarini farqlay olish;
- aktsiyalar kursi, aktsiyalarning nominal qiymati, fond birjasi indeksi, obligatsiyalar, «buqalar», «ayiqalar», «kompaniya narxi» kabi tushunchalar bilan tanishish va ularni o'z nutqlarida qo'llay olish;
- banklarning iqtisodiyotdagi ahamiyatini tushunib yetish;
- iqtisodiy ko'rsatkichlar; daromad, chiqim, foyda, zarar, rentabellik orqali iqtisodiy faoliyatni tahlil qila olish;

-xarajatlarni kamaytirib, daromadni ko'paytirgan holda yaxshi iqtisodiy natijalarga yetishish malakasiga ega bo'lish;

-talab va taklif tushunchalarini o'zlashtirish, ularni bozordagi ahamiyati va o'rnini anglab yetish, ulardan amaliyotda foydalana olish;

-talab va taklif hamda narx o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni topa bilish;

-talab va taklif egiluvchanligini hayotiy vaziyatlarda talqin qila olish;

-bozor iqtisodiyoti sharoitida narx belgilash tamoyillari bilan tanishish va rejali iqtisodiyotdagi narx o'rnatish tamoyillaridan farqlanishini anglash;

-tarixdagi iqtisodiy tizimlar, ayniqsa, rejali iqtisodiyot kamchiliklari haqida munozara yurita olish;

-bozor iqtisodiyotiga o'tish davridagi iqtisodiy faoliyatning o'ziga xosligini tushunib yetish;

-iste'molchining bozordagi mavqeini his eta olish;

-kamayuvchi chegaraviy naflilik qonunining mohiyatini anglab yetish va amalda qo'llay olish;

-iste'molchilarning nominal va real daromadlarini farqlay bilish;

-iste'mol krediti va sug'urta tushunchalari bilan tanishish;

-biznes (tadbirkorlik) va biznesmen (tadbirkor) tushunchalarining mohiyati va ularning bozor iqtisodiyotidagi ahamiyatini tushunish;

-firmalarning ochilish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur shart —sharoitlar, ularni tashkil qilish qoidalari haqida tasavvurga ega bo'lish;

Pedagogik – psixologik adabiyotlarda muayyan fan asoslarining o'quvchilar tomonidan puxta o'zlashtirilishida yana bir jihat muhim ekanligi ta'kidlanadi. Bu jihat ma'lum o'quv fani bo'yicha yaratilgan darslik yoki qo'llanmalarining metodik jihatdan yuqori saviyada bo'lishidir.

II.2. Iqtisodiy ta'limda o'zbek xalq bayramlari

XX asr boshida yanga g'oyalar uchun kurash kuchaydi. XIX asr oxirida boshlangan g'oyaviy-siyosiy kurash XX asr boshida avjiga chiqdi. Bu jarayonda siyosiy oqimlar vujudga keddi. Milliy madaniyat, chunonchi, urf-odatlar va

bayramlarni «qayta anglash», ularni isloh qilish g'oyasi mahalliy aholini ilg'or fikrli ziyolilari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Din arboblari islom an'analari va qadriyatlarini boshqa madaniyat ta'siridan saqlash uchun Yevropa madaniyatiga qarshi kurashga intildilar. Ularning tarafdorlari sof islomiy odatlarni saqlab qolish, yangi an'analarni xalq hayotiga yaqinlashtirmaslikka harakat qildilar (U.Karaboyev, O'zbek xalqi bayramlari. T, 2002).

Mahalliy ziyolilar ichidan yetishib chiqqan jadidlar esa eski, qotib qolgan o'qishning o'qitish usullarini isloh qilish, mahalliy xalq turmush tarziga zamonaning ilg'or yangiliklarini olib kirishga intildilar. Jadidlar deb nom olgan bu milliy ma'rifatparvar ziyolilar mavjud odatlarni qaytadan idrok qilish, undagi eng yaxshi an'analarni rivojlantirish, zamon talabiga javob bermaydigan, eskirgan rasm-rusumlarni bekor qilish, davrning ilg'or yangiliklarini hayotga joriy etishga harakat qildilar.

Furqat, Behbudiy, So'fizoda, Avloniy, Cho'lpon, Fitrat, Hamza kabi ilg'or ma'rifatparvar ziyolilar turmushni o'zgartirish, unga zamonaning yangiliklarini olib kirish, maktab, maorif ishiga e'tiborni oshirish uchun faol kurashdilar. Jumladan, ular gazetalarda o'zlarining milliy odat, an'ana, marosim va bayramlar haqidagi qarashlarini targ'ib qila boshlashdi. Masalan, Ishoqxon Ibrat: «...Hali ham biz o'z dinimizga harakat qilmay, oqcha topsak, hoyu-havas, ovloq to'ylarga o'n ming so'm behuda isrof qilamiz», -deb mahalliy aholi dunyoqarashidagi kamchiliklarni keskin qoralaydi. Isrofgarchilik eng katta kulfatlarga sabab bo'layotganini ta'kidlaydi. Kishilarni o'zlarining ortiqcha pullarini behuda havaslarga sarflamay, o'g'il-qizlarini o'qitishga ishlatishga chaqirdi.

XX asrda ro'y bergan ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy taraqqiyot bayramlarni nishonlashga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Yangi sohalarning paydo bo'lishi natijasida mehnat, tabiat, madaniyat, sport, oilaviy-shaxsiy bayramlar yuzaga keldi. Tabiat bayrami (Ona yer sahovati), qishloq bayramlari, Ko'cha bayramlari, Palov va obi non bayramlari, Tabassum sayli, Do'stlik karnavali kabi o'lkamiz tabiati, xalqimiz milliy xususiyatlariga mos keladigan yanga bayram tadbirlari o'tkazilishi an'anaga aylandi. Shuningdek, o'zbek xalqi ijtimoiy-madaniy hayotining jadal

o'zgarishi natijasida - Kasb bayramlari, Ilk maosh, Avlodlar uchrashuvi, Tantanali nafaqaga kuzatish kabi mehnat marosimlari o'tkaziladigan bo'ldi.

Mustaqillik tufayli o'zbek bayramlari tarixida yangi sahifa ochildi. Masalan, biz iqtisodiy ta'limda quyidagi bayramlardan tarbiya vositasi sifatida foydalanamiz. Tadbirkorlarga bag'ishlangan tantanalar: Sanoat ishlab chiqarishining diqqatga sazovor tomonlaridan biri shuki, unda har bir ishchi mahsulot yaratishda yangilik topishi, samarali usul va vosita ixtiro qilishi mumkin. Odatda, ularni tadbirkor, ixtirochi va kashfiyotchi deb atashadi.

Ixtirochilar yaratgan yangiliklar jamoat uchun juda katta iqtisodiy foyda keltirishi, yoki bir necha kishining mehnatini yengillashtirishi mumkin, shu sababli mamlakatimizning ko'pgina ishlab chiqarish korxonalarida maxsus tadbirkor va ixtirochilar kuni bayram sifatida nishonlanadi. Bunda biz talabalarga bayramni qanday o'tkazish metodikasi mavjudligini yoki yangi usullar rejalar kiritish mumkinligini aytamiz. Masalan, XX asrning 80 – 90 yillari Chirchiq shahar Kimyogarlar madaniyat va texnika saroyida tadbirkor va ixtirochilar bilan ishlash yaxshi yo'lga qo'yilgan edi. Uning asosiy vazifalaridan biri tadbirkor va kashfiyotchilarning faoliyatlariga bag'ishlangan tantanalarni uyushtirish bo'lgan.

Kashfiyotchilar yutuqlarini tarannum etuvchi tantanalar asosan quyidagi 2 qismdan tashkil topadi: 1) tadbirkor va ixtirochilarni sharaflash (ular yaratgan yangiliklar mohiyatini ochish, ularga guvohnomalar topshirish va hokazo); 2) ular uchun maxsus dam olish kechasini tashkil qilish.

Mazkur bayramning birinchi va ikkinchi qismlari o'rtasida bir oz bo'sh vaqt qoldiriladi. Ana shu bo'sh vaqt mobaynida tomoshabin va bayram qatnashchilari e'tiboriga tadbirkor faoliyati haqida ko'rgazma havola qilinadi hamda ixtirochilik muammolari bo'yicha suhbat tashkil qilinadi. Bunday tadbirlar esa ixtirochilik harakatini rivojlantirishda yangi-yangi fikr, g'oyalar tug'dirishi tabiiy.

Kasbiy mahorat ko'rigini o'tazish tantanasi Kasbiy mahorat ko'rigi respublikamizning kupchilik ishlab chiqarish korxonalarida keng tus olmoqda. Ko'rikda eng ilg'or, qobiliyatli, mehnatda sifat va samaradorlikka erishgan ishchilar uchrashishadi va do'stona ijodiy musobaqalashadilar. Mahorat ko'rigini

tashkil qilishda maxsus joy tanlanib, bayroq va shiorlar bilan bezatadi. Musobaqaning tantanali ochilishi, g'oliblarni musiqa sadolari ostida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish, ularga atab badiiy dasturlarni ko'rsatilishi ko'rikni haqiqiy mehnat bayramiga aylantirib yuboradi.

Respublikamizda turli kasblar bo'yicha mahorat ko'riklari o'tkazish tizimi shakllanmoqda. Kasbiy mahorat ko'riklari avvalo korxonalarda o'tkazilib, ularning g'oliblari shahar va viloyat miqyosida o'tkaziladigan ko'riklarda qatnashadilar. Bizning bitiruv malakaviy ishimiz bo'yicha, viloyat miqyosida o'tadigan mehnat ko'riklari asosan 2 qismdan tashkil topmoqda:

- 1) kasbiy mahoratni namoyish qilish, musobaqalashish;
- 2) g'oliblarni aniqlash va ularni sharaflash.

Mazkur tadbirni boshlashdan oldin ko'rikning hakamlari aniqlanadi, ko'rik shartlari e'lon qilinadi. Qatnashuvchilarga maxsus ruxsatnoma faqat o'zining ishlab chiqarish kuchiga va jamoat faoliyatiga bag'ishlagan kishiga beriladi. Ko'rikning asosiy sharti mehnat jarayonida belgilangan sharoitda maxsulotni tez, soz va sifatli qilib tayyorlashdir. Bunda asosiy e'tibor maxsulot tayyorlashning sur'at va sifatiga qaratiladi.

Ko'rik ishtirokchilari — ishchilar bu paytda yuksak mahoratni namoyish qilish bilan birga, maxsulotning texnik jihatdan go'zalligi va badiiy estetik didiga alohida e'tibor berishlari kerak. Hakamlar hamda musobaqa tomoshabinlari ko'z oldida g'oliblarga mukofotlar topshiriladi. Jumladan, ularga «Ertangi kunning ustasi» degan unvon, faxriy yorlig'i, qimmatbaho sovg'alar taqdim etiladi. Ko'rik-tanlov yakunida maxsus kontsert ko'rsatiladi.

II.3. O'quvchilarda iqtisodiy malakalarni shakllantirishning shakl, metod va vositalari

Ta'lim jarayoniga nisbatan texnologik yondashuv individual xususiyat kasb etishi bilan birga umumiy didaktik talablarga muvofiq kelishi zarur. So'nggi yillarda o'quvchilarga nazariy bilimlarni berish bilan bir qatorda ularda amaliy ko'nikma va malakalarni ham shakllantirish maqsadida ta'lim jarayonini tashkil

etishda eng samarali shakl, metod va vositalarning tanlanishiga jiddiy e'tibor qaratilmoqda.

Samarali ta'lim shakllari sifatida quyidagilarni keltirish maqsadga muvofiqdir:

- 1.Ma'ruza.
- 2.Seminar.
- 3.Konferentsiya.
- 4.Suhbat.
- 5.Davra suhbat.
- 6.Ekskursiya.
- 7.Amaliy mashg'ulotlar.
- 8.Tanlovlar.
- 9.Debat.
- 10.Bahs - munozara.
- 11.Uchrashuv.
- 12.Amaliy trening.

Ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlovchi omillardan yana biri – bu pedagog tomonidan maqsadga muvofiq, o'rinli ravishda turli metodlarning qo'llanilishi sanaladi.

Ma'ruza – o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga iqtisodiy bilim asoslari to'g'risida batafsil ma'lumot berish. Ma'ruza odatda yozma matnni o'qishga asoslanadi, biroq zamonaviy talqinda ma'ruza vaqti–vaqti bilan o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida muloqot tashkil etish (savollar qo'yish, muammoli vaziyatni yaratish va boshqalar) tarzida amalga oshiriladi. Bosqichlari: 1) nazariy ma'lumotlarni to'plash; 2) mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish; 3) ma'ruza matnini tayyorlash; 4) o'quvchilarga matnda ifodalangan ma'lumotlarni yetkazib berish; 5) vaqti–vaqti bilan o'quvchilarni muloqotga chorlash; 6) savollar yordamida o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasini aniqlash; 7) mavzuga yakun yasash.

Seminar – ma'lum mavzuning o'quvchilar tomonidan mustaqil ravishda

o'qib–o'rganilishi bo'lib, u o'quvchilarda ijodiy izlanish, qo'yilgan muammo yuzasidan fikr yuritish, uning yechimini topish yo'lida amaliy harakatni tashkil etish, shaxsiy fikrlarini ilgari surish va ularni isbotlash, mavjud nazariy g'oyalar asosida ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Seminar mashg'uloti quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: 1) o'quvchilarga muayyan topshiriqlarni berish; 2) seminar o'tkazish vaqtini aniqlash; 3) seminarga tayyorgarlik ko'rish; 4) seminarni tashkil etish (o'quvchilar navbat bilan mavzuning umumiy mohiyati yoki alohida bandlari bo'yicha fikrlarini bayon etadilar); 5) savollar berish asosida mavzu mazmunining to'liq ochib berilishiga erishish; 6) mavzu yuzasidan umumiy xulosalarga kelish.

Konferentsiya – oraliq nazorat ko'rinishlaridan biri bo'lib, chorak yoki yil davomida muayyan mavzular bo'yicha mustaqil tayyorlangan ishlar (referat, insho, ijodiy ish va boshqalar)ning taqdimoti. O'quv faoliyatini tashkil etish, shuningdek, o'quvchilar tomonidan nazariy va amaliy bilimlarni, chuqur o'zlashtirilishiga erishishda konferentsiyalar alohida ahamiyatga ega. Konferentsiyalar ham bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Ya'ni: 1) konferentsiyani tashkil etish uchun dolzarb muammo yoki mavzuni belgilash; 2) o'quvchilarni konferentsiya tashkil etish, shuningdek, maqsadidan ogoh etish; 3) tayyorgarlik jarayoni (materiallarni yig'ish, ularni umumlashtirish, ilgari surilayotgan g'oyalarni tahlil qilish, muhimlarini ajratish va hokazolar); 4) ma'ruzalar bilan chiqish; 5) ilgari surilayotgan g'oyalar yuzasidan munozara tashkil etish; 6) yakuniy xulosalarga kelish.

Amaliy mashq – o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, shuningdek, amaliy ko'nikmalarni hosil qilish maqsadida nazariy ma'lumotlarni amaliy jarayonga tatbiq etish. Amaliy mashqlar tabiiy yoki sun'iy ravishda yaratilgan muhitlarda amalga oshiriladi. Amaliy mashqlar ham bir qator shartlar asosida amalga oshiriladi, ya'ni, 1) mashg'ulot mohiyati bilan o'quvchilarni tanishtirish; 2) o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy ma'lumot (qoida, nazariya) larni bir bor yodga olish; 3) o'quvchilarga aniq topshiriqlarni berish; 4) topshiriqlarning bajarilish jarayoni; 5) o'quvchilar faoliyatini nazorat qilib borish, zarur o'rinlarda

maslahatlar berish, yo'l–yo'riqlar ko'rsatish; 6) topshiriqlar yechimlari yuzasidan munozara tashkil etish; 7) o'quvchilar faoliyatini baholash.

Izohli diktant – o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish va baholash shakllaridan biri. Mashg'ulotlar jarayonida qisqa muddatda tashkil etilib, o'quvchilarning muhim iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlashga xizmat qiladi. Izohli diktant ham bir necha shartlarga muvofiq amalga oshiriladi. Ular quyidagilardir: 1) o'quvchilarni topshiriq mohiyati bilan tanishtirish; 2) o'quvchilar e'tiboriga ular tomonidan sharhlanishi talab etiluvchi tushunchalar majmui tavsiya etiladi; 3) o'quvchilar berilgan tushunchalarni yozma ravishda sharhlaydilar; 4) o'quvchilar faoliyati nazorat qilib boriladi; 5) o'quvchilarning yozma javoblari yig'ib olinadi; 6) o'quvchilar baholanadi.

Kichik guruhlarda ishlash – muayyan muammoning yechimini topishda hamkorlikda ishlash hamda o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan ijodiy faoliyat jarayoni. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quvchilariga iqtisodiy bilimlarni berish jarayonida kichik guruhlarda ishlash quyidagi bosqichlarda tashkil etiladi: 1) o'quvchilarning umumiy sonidan kelib chiqqan holda ularni guruhlarga bo'lish; 2) muammoni guruhlarda muhokama qilish; 3) muammo yechimlarining taqsimoti; 4) yechimlar yuzasidan qisqa munozaralarni tashkil etish; 5) yakuniy xulosalarga kelish.

Rolli o'yinlar – o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochishga yordam beruvchi hayotiy vaziyatlarni sun'iy sharoitda yuzaga keltirish. Rolli o'yinlar quyidagi bir qator shartlarga muvofiq amalga oshiriladi: 1) o'quvchilarni vaziyat bilan tanishtirish; 2) o'quvchilarning psixologik, fiziologik va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olish asosida ularga rollarni bo'lib berish; 3) o'yinni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad hamda amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalar bilan o'quvchilarni tushuntirish; 4) o'yin jarayonida o'quvchilarning faoliyati, hatti —harakatlarini kuzatib borish; 5) o'quvchilar faoliyatini mavjud nazariy bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishga yo'naltirish; 6) o'yin natijalarini tahlil qilish; 7) natijalarni hayotiy hodisalar bilan taqqoslash.

Juftlik asosida bilimlarni o'zlashtirish – o'quvchilarni juft bo'lib ma'lum mavzu yuzasidan muloqot tashkil etishga chorlash, ularda o'zaro fikr almashish va hamsuhbatini tinglash ko'nikmalarini hosil qilish. Juftliklar yonma–yon o'tirgan o'quvchilar, sinf jurnalida o'quvchilar shaxsining qayd etilish tartibi, o'quvchilarga ikkita bir xil suratlardan iborat kartochkalar to'plamini tarqatish asosida hosil qilinadi. Juftlik asosida bilimlarni o'zlashtirishning bosqichlari quyidagilardan iboratdir: 1) o'quvchilarga juftliklarni hosil qilish sharti haqida ma'lumot berish; 2) juftliklar hosil qilish; 3) ta'lim maqsadi va vazifalarini tushuntirish; 4) juftliklar tomonidan muayyan mavzu bo'yicha munozaraning tashkil etilishiga erishish; 5) mavzu yuzasidan juftliklar xulosalarining bayon etilishi; 6) qisqa muddatli umumiy munozarani tashkil etish; 7) yakuniy xulosaga kelish.

Mustaqil ishlash – o'quvchilarda mustaqil ishlash, nazariy bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, shuningdek, o'quv manbalari, jumladan, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, lug'atlar, kompyuter materiallari hamda tasvirlar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish, o'quvchilarning individual, guruhli yoki jamoa bo'lib ishlash tajribasiga ega bo'lishlari uchun sharoit yaratish, o'quvchilarning amaliy faoliyatiga bevosita dahl etmaslik. Bu jarayonda o'qituvchining asosiy vazifasi o'quvchilarning faoliyatini umumiy tarzda boshqarish, nazorat qilib borish, zarur o'rinlarda maslahatlar berish, yo'l–yo'riqlar ko'rsatish, xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borishdan iborat.

«Men o'qituvchi» – o'quvchilardan biriga sinfdagi munozarani ma'lum vaqtgacha boshqarishni topshirish.

Ovozga qo'yish – ma'lum mavzu yoki muammo yuzasidan chiqarilgan xulosalarning maqbullik darajasini aniqlash. Ovozga qo'yish ham bir qator shartlar asosida kechadi: 1) dars davomida bahsli vaziyatni keltirib chiqarish; 2) guruhlar yoki tomonlarning fikrlari, dalillarini tinglash; 3) guruhlar yoki tomonlarning fikrlarini ovozga qo'yish; 4) fikrlarning maqbullik darajasini aniqlash; 5) maqbul topilgan bir necha fikrlarni qayta ovozga qo'yish; 6) yakuniy xulosaga kelish.

«Aqliy hujum» – mavzu yuzasidan ko'tarilayotgan umumiy muammo bo'yicha o'quvchilarni o'zaro muloqotga chorlash, ularni faollik ko'rsatishga

undash. Bu metod o'quvchilarda muammo yuzasidan shaxsiy qarashlarini ilgari surish, ularni dalillash va himoya qilish ko'nikmalarini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonida «Aqliy hujum» metodini qo'llash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: 1) muammoli vaziyatni keltirib chiqarish; 2) o'quvchilarni muammoli vaziyatni topishga jalb etish; 3) turli yechimlarning taqdim etilishiga erishish; 4) ularni o'zaro qiyoslash asosida eng maqbulining tanlab olinishiga erishish; 5) o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish; 6) muammo yuzasidan yakuniy xulosani ilgari surish; 7) o'quvchilar faoliyatini baholash,

Tadqiqot – o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan mavjud bilimlar asosida hali o'rganilmagan muammo yuzasidan individual, guruhli yoki jamoa tarzida kichik izlanishni amalga oshirish, dalillar asosida ilgari surilayotgan taxminning haqqoniyligini tekshirish. Tadqiqotning quyidagi shartlarga muvofiq amalga oshirilishi ma'lum samaralarga erishishni kafolatlaydi. Ya'ni: 1) barcha o'quvchilarda birdek qiziqishni uyg'ota oluvchi muammo yoki masalani belgilash; 2) muammo yoki masalaning yechimini to'g'ri topish maqsadida manbalarni o'qib – o'rganish; 3) ma'lumotlar to'plash va ularni umumlashtirish; 4) muammo yoki masalaning maqbul yechimi sifatida mustaqil dalillarni ilgari surish; 5) ularning to'g'riligini tahlil qilish; 6) yakuniy xulosaga kelish.

O'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish hozirda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni vaqtda respublikada faoliyat olib borayotgan ko'pgina umumiy o'rta ta'lim maktablari yetarli darajada texnik vositalar bilan ta'minlangan, biroq aksariyat pedagoglar yetarli darajada ulardan samarali foydalanish malakasiga ega emaslar. Ish jarayonida quyidagi texnik vositalarning o'quvchilarga iqtisodiy malakalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi:

- 1.Nusxa ko'chirish qurilmasi.
- 2.Kodoskop.
- 3.Televizor.
- 4.Videomagnitafon.
- 5.Raqamli fotoapparat.

- 6.Skaner.
- 7.Videoglaz (videoko'zgu).
- 8.WEB kamera.
- 9.Mikrafon.
- 10.Kompyuter.
- 11.Printer.
- 12.Videoproektor.

O'quvchilar tomonidan iqtisodiy bilimlarini, chuqur o'rganish hamda o'zlashtirilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda ularning faoliyatini psixologik – pedagogik va metodik jihatdan to'g'ri nazorat qilish, xolis baholashga erishish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritguniga qadar ta'lim tizimida o'quvchilar bilimini aniqlash, baholashda quyidagi to'rt holat inobatga olingan:

- 1) ma'lumotlar, tushunchalarni xotirada saqlash darajasi;
- 2) reproduktiv daraja (o'rganilgan qoida yoki berilgan namuna asosida amal (mashq, misollarni bajarish, masalalarni yechish);
- 3) produktiv daraja (tipik bo'lmagan masalani hal etishda shakli o'zgartirilgan bilimni mustaqil ravishda o'zlashtirish);
- 4) ijodiy — izlanuvchanlik darajasi.

Respublika uzluksiz ta'lim tizimiga rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi tajribasidan o'tgan reyting nazoratining tatbiq etilishi yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlarning o'zigina o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis aniqlashga imkon bermasligi ma'lum bo'ldi. Shu bois takomillashtirilgan nazorat va baholash tizimini yaratishga bo'lgan ehtiyoj yuzaga keldi,

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni g'oyalariga muvofiq endilikda umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan barcha o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarning darajasini belgilovchi davlat ta'lim standartlari

ishlab chiqildi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim mazmunini belgilashda davlat ta'lim standartlari asosiy me'yoriy hujjatlardan biri sifatida o'quv yurtlari faoliyatini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'quvchilarning iqtisodiy bilimlari darajasini aniqlashda ham «Iqtisodiy bilim asoslari» fani bo'yicha ishlab chiqilgan davlat ta'lim standartlarining talablariga muvofiq ish ko'rildi. Har bir mavzu bo'yicha o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi zarur bo'lgan asosiy tushunchalar va ularga egalik darajasini aniqlashda DTS talablari yetakchi o'rin egalladi.

Bizning fikrimizcha, bugungi kunda quyidagi holatlarni inobatga olish ta'lim maqsadlariga muvofiq o'quvchilar faoliyatini to'g'ri nazorat qilish, ular tomonidan o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini xolis, har tomonlama baholashga imkon beradi:

1. Bilish va tushunish darajasi (1–daraja) – o'rganilgan materialni xotirada saqlab qolish, qayta aytib bera olish, mohiyatini idrok etish va tushunganlikni namoyon qilish, qo'yilgan masalani bir shakldan boshqa shaklga ko'chira olish.

2. Qo'llay olish darajasi (2–daraja) – o'rganilgan umumiy tushuncha, nazariya, qoida va uslublarni xususiy, muammoli vaziyatlar, misol va masalalarga tatbiq eta bilish, amalda samarali qo'lay olish.

3. Analiz (tahlil) va sintez qilish darajasi (3–daraja) – berilgan muammoni hal qilish uchun zarur ma'lumotlarni turli xil manbalardan topish, tartibga solish, tahlil qilish; o'rganilgan yaxlit materialni kichik, alohida–alohida bo'laklar, tartibiy qismlarga ajrata olish va ular orasidagi o'zaro aloqadorlik, borliqlik, o'zaro munosabatlarni aniqlash asosida tahlil qilish, alohida tushuncha, g'oyalarni umumlashtirib, ya'lit xulosa chiqara olish.

4. Baholay olish darajasi (4–daraja) – muammoli vaziyatni ma'lum ichki yoki tashqi mezonlar yordamida baholash va taqqoslash, ular asosida iqtisodiy mazmunga ega qarorlarni qabul qilish; tanqidiy fikrlash ko'nikmasiga ega bo'lish.

O'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlariga qo'yiladigan talablarni ular tomonidan amalga oshiriluvchi ma'lum hatti – harakatlar, faoliyatga muvofiq tasvirlash mumkin.

Pedagogik va psixologik manbalarda rol va ishchanlik o'yinlari o'rgatuvchi (o'quv malakasini shakllantirish, ijodiy qobiliyatni o'stirish, turli murakkablikdagi vaziyatlar mohiyatini anglash, aniqlash va tahlil qilish), rivojlantiruvchi (mantiqiy fikrlash, nutqni to'g'ri ifodalash, voqea-hodisalar mohiyatini idrok etish qobiliyatini o'stirish), qiziqtiruvchi (faollikka undash, bilimlarning ahamiyatini anglash, mustaqil xulosaga kelishni rag'batlantirish) va tarbiyaviy (mas'uliyat, jamoa bilan birga harakat qilish, o'zaro hamkorlik hislarini shakllantirish) xususiyatlarga egaligi qayd etiladi.

2-bob bo'yicha xulosalar:

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning boshlang'ich ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlarida fanlararo o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikka erishish so'z yuritilayotgan jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida iqtisodiy malakalarni shakllantirishda o'zbek xalq pedagogikasidan foydalanish jarayonida muayyan andoza ko'zga tashlanadi. Ya'ni, mazkur andoza o'zida quyidagi holatlarni namoyon etadi: iqtisodiy ta'limni tashkil etish – amaliy mashg'ulotlarni olib borish – o'quv amaliyotini yo'lga qo'yish – iqtisodiy faoliyat ko'nikma va malakalari (ma'lum g'oyani ilgari surish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga oid muayyan loyihani ishlab chiqish, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun sarmoya topish, ishlab chiqarish jarayonining huquqiy asoslarini yaratish, ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yish, qo'shimcha daromad olinishiga erishish, ortiqcha mablag'larni ishlab chiqarishni takomillashtirish uchun sarflanishini ta'minlashga imkon beruvchi aqliy, irodaviy hamda axloqiy sifatlar)ning shakllanishi – keng ko'lamli ishlab chiqarish jarayonida faol ishtirok etish – ishlab chiqarish faoliyatida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritish.

XULOSA

O'quvchilarda iqtisodiy malakalarni shakllantirishda o'zbek xalq pedagogikasidan foydalanish muammosining dolzarbligini inobatga olgan holda mazkur muammoning nazariy va amaliy jihatdan o'rganib quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishi o'z navbatida fuqarolar, shu jumladan, yoshlar tomonidan iqtisodiy bilim asoslari hamda muayyan ishlab chiqarish yo'nalishi bo'yicha amaliy faoliyat ko'nikmalarining puxta o'zlashtirilishini talab etadi. Zero, keskin raqobatga asoslangan mavjud sharoitda shaxsning iqtisodiy bilim va tadbirkorlik ko'nikmasiga ega bo'lishi faqatgina uning moddiy ehtiyojlarini qondirish uchungina emas, balki, ayni vaqtda jamiyat ravnaqini ta'minlashga ham xizmat qiladi.

2. Yoshlar, xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida iqtisodiy malakalarni shakllantirishda o'zbek xalq pedagogikasidan foydalanish ushbu o'quv muassasalari tomonidan amalga oshirilayotgan o'quv–tarbiyaviy faoliyatning muhim tarkibiy qismi sanaladi. Ushbu jarayonni amalga oshirish o'ziga xos pedagogik yondoshuvni taqozo etadi,

3. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilariga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning boshlang'ich ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlarida fanlararo o'zaro aloqadorlik va bog'liqlikka erishish so'z yuritilayotgan jarayonning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

4. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida iqtisodiy malakalarni shakllantirishda o'zbek xalq pedagogikasidan foydalanish jarayonida muayyan andoza ko'zga tashlanadi. Ya'ni, mazkur andoza o'zida quyidagi holatlarni namoyon etadi: iqtisodiy ta'limni tashkil etish – amaliy mashg'ulotlarni olib borish – o'quv amaliyotini yo'lga qo'yish – iqtisodiy faoliyat ko'nikma va malakalari (ma'lum g'oyani ilgari surish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishga oid muayyan loyihani ishlab chiqish, ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish uchun sarmoya topish,

ishlab chiqarish jarayonining huquqiy asoslarini yaratish, ishlab chiqarish jarayonini yo'lga qo'yish, qo'shimcha daromad olinishiga erishish, ortiqcha mablag'larni ishlab chiqarishni takomillashtirish uchun sarflanishini ta'minlashga imkon beruvchi aqliy, irodaviy hamda axloqiy sifatlar)ning shakllanishi – keng ko'lamli ishlab chiqarish jarayonida faol ishtirok etish – ishlab chiqarish faoliyatida muayyan yutuqlarni qo'lga kiritish.

5. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarida iqtisodiy malakalarni shakllantirishda o'zbek xalq pedagogikasidan foydalanishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning mazkur andozaga muvofiq yo'lga qo'yilishi bitiruv malakaviy ish muammosining ijobiy yechimini topishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2014. –76 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 56 B.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. - 488 B.
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlari ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. -488 B.
5. Mirziyoyev Sh.M.Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. -Toshkent: O'zbekiston, 2017. -104 B.
6. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1998. – 64 b.
7. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasining Yer Kodeksi va qishloq xo'jaligaga oid qonun hujjatlari. – T.: Adolat, 1999. – 448 b.
9. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi va metodologiyasi. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012.
10. Abdusalomov M.U. Tadbirkorlar huquq va manfaatlarini himoya qilishning huquqiy usullari va muammolari: Yurid.fan.nom. ... diss. avtoref. – T.: 2002. – 22 b.
11. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
12. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi / Darslik. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2008.
13. Iqtisodiyot va biznes asoslari. O'qit. uchun qo'll. //Sariqov E., Haydrov B., Ishmurodova G., Sariqov Sh. – T.: Cho'lpon, 2004. 95 b.

14. Iqtisodiy ta'limda interfaol metodlar //Seminar–trening mat. – T.: Iqtisodiy tadqiqotlar va ta'lim Markazi, 2005. –175 6.
15. Iqtisodiyotdan qisqacha izohli lug'at //Sh.Shodmonov tahriri ostida. Tuzuvchilar: A.Hasanov, S.Mirzaxo'jaev. – T.: O'qituvchi, 1998. - 1126.
16. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'll. - T.: O'qituvchi, 2004.
17. Karaboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. T, 2002.
18. Roziqov O., Adizov B., Najmiddinova G. Umumiy didaktika. –Buxoro, “Durdona”.2012-yil.
19. Ro'ziyeva D., Usmonboyeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2013.
20. Sariqov E., Haydarov B. Iqtisodiy bilim asoslari. 8 –sinf uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2014. –157 d.
21. Sariqov E., Haydarov B. Iqtisodiy bilim asoslari. 9 –sinf uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2014.
22. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari. – Toshkent: “Fan va texnologiyalar”, 2006.
23. Xudoyqulov X. Shaxs shakllanishida iqtisodiy tarbiyaning o'rni //Xalq ta'limi j., 2005. 1–son. – 69 –73 b.
24. Xudoyqulov X.J. Zamonaviy pedagogik texnologiya – ta'lim samaradorligining asosidir. – T.: Navro'z, 2013.
25. Shurkova N.E. Pedagogicheskaya texnologiya. – M.: Pedagogicheskoe obshchestvo Rossii, 2002. - 283 s.
26. www.tdpu.uz
27. www.ziyonet.uz
28. www.lex.uz
29. www.buxdu.uz

ILOVALAR

MUNDARIJA:

REJA.....	3
KIRISH.....	4
I BOB. O'QUVCHILARDA IQTISODIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	10
I.1. O'quvchilarga iqtisodiy ta'lim-tarbiya berish sohasidagi tarixiy tajribalar.....	10
I.2.O'quvchilarda iqtisodiy malakalarni shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida.....	31
II BOB. UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI O'QUVCHILARIDA IQTISODIY MALAKALARNI SHAKLLANTIRISHDA O'ZBEK XALQ PEDAGOGIKASIDAN FOYDALANISHNING AMALIY ASOSLARI.....	43
II.1. O'quv fani - o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni beruvchi asosiy manba.....	43
II.2. Iqtisodiy ta'limda o'zbek xalq bayramlari.....	49
II.3. O'quvchilarda iqtisodiy malakalarni shakllantirishning shakl, metod va vositalari	52
XULOSA.....	61
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	63
ILOVALAR.....	65